

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

# TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

*O'quv qo'llanma*

**MAJBURIY  
BEPUL NUSXA**

“Sano-standart”  
Toshkent – 2012

UDK: 37.02

KBK: 74.268.77

T23

- *Тарбиявий исхлар методикаси* (o quv qo'llanna).

Tuzuvchilar Y.Rasulova, D.Maqsdanova. - T. : "Sano-standart" nashriyoti. 2012 y. - 96 bet.

ISBN 978-9943-396-89-0

UDK: 37.02

KBK: 74.268.77

T23

*Mazkur qo'llanna pedagogika kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" fanini o'qitishda hamda umumta lim maktablari o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.*

**Tuzuvchilar:** Y.Rasulova, D.Maqsdanova – 1-Toshkent Pedagogika kolleji o'qituvchilari.


**Taqrizchilar:** M.Mirsoliyeva – pedagogika fanlari nomzodi, Nizomiy nomli TDPU kata o'qituvchisi.

M.Shoyusupova, F.Xasanova – 1-Toshkent Pedagogika kolleji o'qituvchilari.

10 41235  
28  
*Qo'llanna 1-Toshkent Pedagogika kolleji Ilmiy-pedagogik kengashi yig'ilishining 2011 yil 26 sentabr 2-sonli bayonnomasiga asosan nashrnga tavsiya etildi.*

ISBN 978-9943-396-89-0

© "Sano-standart" nashriyoti, 2012y.



*Inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiya-dan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'iy maktab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.*

I.Karimov

## **TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI FANI, UNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

Reja :

- 1.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining maqsad va vazifalari.
2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyaning mazmuni.

Hozirgi vaqtida, fan va madaniyatning eng so'nngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va metodlarini izlash nihoyatda zarurdir.

Jamiyatda yuksak ma'nnaviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib, unda har tomonlama ta'sir ko'rsatiladi.

Tarbiya tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy hodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga ega.

Tarbiyashunos olim A.Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta'kidlab shunday degan edi. "Janobi haq insonlarni asl hilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foya ila zararni, oq ila qoranai ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, har kim qoshida maqbub, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo'lib

qoladi.Tarbiya qiluvchilar tabib kabiturki, tabib xastanining badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahh maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib, katta qilmog’i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo’lishining asosiy panjasasi tarbiyadir. Axloqimiz binosining go’zal va chiroli bo’lishiga tarbiyaning zo’r ta’siri bordir.

*Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,  
Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat.  
Tarbiya hamroh etadur hur ila rizvonlara,  
Gar desam bo’lmas xato jannat makoni tarbiyat.  
Ey, otalar! Joningizdan suchuk farzandingiz,  
G’ayrat aylang, o’tmasun vaqt zamoni tarbiyat.”*

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas’uliyatli faoliyat bo’lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarini komil inson qilib yetishtirishda unga har tomonlama ta’sir ko’rsatadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi fanining predmeti, bo’lajak tarbiyachi o’qituvchilarga kelajak avlodni ma’naviy jihatdan yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san’atining qirralari, shakl va yo’llari, hamda bilim, malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy fan bo’lib, milliy ong va istiqlol mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsad va vazifalari:

Bo’lajak o’qituvchilar, tarbiyachilar tarbiyaviy tadbirdarning mazmundorligini ta’minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyatlardan keng foydalanishi, tarbiyaviy ta’sirga ega bo’lgan manbalarni ajratma bilishi;

O’quvchilar jamoasining tarbiyaviy darajasini o’rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish mahoratiga ega bo’lishi;

Tarbiyaviy tadbirlar uchun zarur metodlarni tanlab, ko’zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarni ko’ra bilishi;

Ilg’or tajribalarni kuzatib, tahlil qilib, undan ijodiy foydalanishi;

Tarbiyaviy tadbirlarni o’quvchilarni ruhiyatiga qanchalik ijobjiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi;

Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borishi lozim.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasining asosiy manbalari:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

Milliy qadriyatlar;

Umuminsoniy qadriyatlar;

Islom ta'lomi;

O'zbek milliy urf-odatlari;

Donolar bisoti;

O'zbekiston maktablaridagi ilg'or tajribalar.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining tizimi:

Pedagogik mahorat va tarbiyachilik san'ati;

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning sharqona o'ziga xosligi va pedagogik ta'sir ko'rsatish;

Tarbiyachilik kasbiga yo'naltirish;

Hozirgi zamon pedagogik texnologiyasi bilan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning tizimi;

Milliy istiqlol talabiga javob beradigan barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgandir.

O'quvchilarga tarbiya berish ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birgalikda amalga oshiriladi. Ammo tarbiyaning o'z vazifasi, mazmuni, shakl hamda metodlari bor. O'quv-tarbiyaviy jarayonning uzviyiliqi muktab oldiga qo'yilgan eng muhim pedagogik qoidalardan biridir. Shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o'quv jarayoni bilan bog'liq. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda ilm olishga ishtiyoyq uyg'otish, qobiliyati va ist'odollarini ro'yobga chiqarish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iborat.

Yoshlarning g'oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, jonajon Vatanni cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash hissini tarkib toptirish – vatanparvarlik tarbiyasining mag'zi bo'lmog'i lozim.

## **“SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLAR” KONSEPSIYASI**

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy c'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobjiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaning bosh maqsadi-yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analoriga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: – yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish.

– O'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy me'rosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

– Har bir o'smirning bilimdonligini va ijtimoiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- Insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanilishi lozim;
  - Vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat-muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, unung himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasi, Bayrog'iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatl qilib tarbiyalash;
  - Qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy ma'suliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, Insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lif-tarbiya;
  - Mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevar, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariiga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmoq kerak;
  - Turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;
  - Sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;
  - Yoshlarni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.
- Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:**
  - Tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqlari va erkinligini e'tiborga olish;
  - Yoshlarda istak va imkoniyatlar muvofiqligi tuyg 'usini qaror toptirish;
  - Milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga taynish;
  - Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtaida bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish;

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni, jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishini, mehnat va jamoada faollikni, ma'naviy yetuklikni barqaror etadi:

- Isohotlarning taqdiri va samarasи uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustuvor davlat siyosati yuritiladi.

- Siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalmillallikni his etish, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol qatnashishga shay turmoq zarur.

- Xalq davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat'iy amal qilishi, qonunchilikning buzilishiga murosasiz munosabatda bo'lishi lozim.

- Shaxsnинг ma'naviy, axloqiy sifatlarini tarbiyalash zarur.

- Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, shakllanayotgan milliy mafkurani yoshlar ongiga mukammal yetkazish darkor.

- Kishilarni o'z-o'zini chuqur anglashi, mustaqillik mohiyatini teran tushunishi va uning qadriga yetishi, milliy tafakkur takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhuning uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasida siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishini tu-shuntirish. Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni o'smirlar orasida kuchaytirish zarur. Axloq yo'q etsan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchin axloqiy tarbiya shaxsnинг har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'mini egallaydi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lif muassasalarini tarbiyachi-lari (o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlari axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir.

Topshiriq: "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" konsepsiyasini o'rganish, tahlil qilish.

## MILLIY URF-ODAT, QADRIYAT VA AN'ANALAR TARBIYA ASOSIDIR

Reja:

1. O'quvchilarni tarbiyalashda milliy urf-odatlarning tutgan o'rni.
2. Milliy qadriyat an'analar orqali o'quvchilarni tarbiyalash yo'llari.
3. Xalq an'analarining tarbiyadagi ahainiyati.

Milliy qadriyat – bu millatimiz barpo etilgandan to hozirgi kungacha bo'lган barcha urf-odatlariimiz, marosim va an'analarimiz davom etib kelayotgan hunarmandchilimiz, san'at asarlarimiz, yozma manbalar-u yodgorliklarimiz, milliy insnoatlarimiz, boy merosimizdir. Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umum-insoniy qadryatlarning birligidan tashkil topadi. Ma'naviy meros o'tmishning yutug'i uni to'la, oqilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O'z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina mustaqillik ravnaqi uchun kurashga o'zida kuch va qudrat topa oladi.

An'ana – o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir. U kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakatlar, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar, urf-odat va marosimlar yig'indisidan iborat. Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor ko'nikmalari. Masalan : kishiklarning kattalarga salom berishi. Asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarida olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida yaxlit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan shaxs ma'naviy madaniyati hisoblanadi. Milliy va

umuminsoniy ma'naviyat va qadriyatlardan to'la bahramand bo'l-magan, ona tilini bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo'shmagan inson ma'naviy qashshoqdir. Ma'naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib horadi. Ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish har bir jamiyat a'zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir. Mustaqil respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;

– o'zbek xalqi asrlar mobaynida yaratilgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko'rish;

– qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san'atni bilish hamda rivojlantirish;

– o'zbek tilini taraqqiy ettirish, respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish; hurfikrlilik, vijdon va din erkinligi (tolerantlik)ni qaror toptirish;

– ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish; oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash;

– ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganishga erishish kabi shartlarni amalga oshirish lozim. Umumiyligi ta'lim oldiga qo'yilgan muhim maqsad – umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lim-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida qat'iy belgilab qo'yiganidek, "...ta'limda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustivorligi" ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir.

Har bir taraqqiy etgan, madaniyatlari xalqning o'z tili, urf-odati, adabiyoti, asori-atiqlari, an'anaviy moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. O'zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan

biri sifatida mana shunday merosga ega. Bu bilan biz haqli ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o'sha qadimiylar madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazish insomiy burchimizdir. Shuni unutmaslik kerakki, ming-ming yillar davomida shakllangan urf-odat, marosim, adabiyot, san'at biz bilan qadimdan yonma-yon hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaratilgan, taraqqiy topgan. Hatto jahonning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiylar madaniyatning shakllanishida muayyan hissalarini bor. Har bir xalq ana shu udumlar, urf- odat, o'tmishta chuqr tomir otib ketgan o'q ildizlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rinni tutadi.

Inson bolasi yoshligidan yaxshi va yomon odatlarning qaysisiga ko'nikib, o'rganib qolgan bo'lsa, bu udum uni bir umr tark etmaydi. Shuning uchun ham xalqimizda, "beshikda tekkan – kafanda ketar" yoki "dard ketar – odat qolar", "illat ketar – odat ketmas" degan maqollar bor, yoki tavallud topgan bolaning qulog'iiga ota-bobolarimiz birinchi navbatda azon aytilganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochiladi. Odamlarning eshitish, tinglash qobiliyati ish boshlaydi. Ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iiga aytib singdirilgan. So'ng uning chillasi – kichik chilla va katta chilla o'tkaziladi, bolaning onasidan bo'lak uning yoniga, hech kim kiritilmaydi. Katta chillasi, qirq kun o'tganidan keyin bolani beshikka belash marosimi bo'lib o'tadi. Yangi dunyoga kelgan bolani yomon ko'zdan, ins-jinsdan asrash, uni gigiyenik himoya qilish uchun shunday qilinadi. Chilla kunlari ona va bola yaxshi parvarish qilinadi. "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar" deydilar. Abu Ali ibn Sino go'dak bola chillasi, uning enagasi parvarishi to'g'risida ming yil burun bugun ham ibrat bo'ladigan risolalar yozib ketganlar. Tavallud topgan bola bosh farzand bo'lsa, bozordan borib beshik sotib olinadi. Ikkinchisi yo navbatdagi farzand bo'ladigan bo'lsa, opa-akasining beshigiga belanadi. Beshik – bola oyoqqa turguncha yotadigan joyi, boshpana uyidir. Beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida alohida o'rinni tutadi. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Onalar qadimdan o'z bolalari beshigi tepasida kechasi bo'lsin, kunduzi bo'lsin, alla aytib kelishgan. Allalarda xalq turimushining juda ko'p qirralari o'z aksini topgan. Alla

o'z ohangi bilan bolaga ona nafasini yetkazib turadi. Go'dakni xotirjam qiladi, orom olib uqlashiga imkon beradi. Allalarga onalar o'z hisstuyg'ularini, orzu-armonlari, istak-niyatlarini, dard-hasratlarini ham qo'shib aytganlar. Alla axloqiy, tarbiyaviy, didaktik, an'anaviy va ongli ijod namunalaridan iborat bo'lgan. Alla tinglagan bola onaga mehrni sut bilan o'z taniga, shuuriga singdiradi. Alla nafaqat onaning bolaga mehri, balki bolaning onaga mehr-oqibatini ham ma'nani minlaydi. O'zbek onasi alla aytarkan, bu allalar bir-biriga sira o'xshamaydi. Hatto bir onaning bugungi allasi kechagisiga o'xshamasligi mumkin. Allalarda hamma ona va bolaga xos bo'lgan urnumiylik bor. Bu mehr, bu muhabbat!

Ismu sharif. Dunyodagi barcha jonli-jonsiz narsalar, hatto oniy voqeа-hodisalarning o'z nomi, ismi, atamasi bor. Ismlarda har bir narsaning, voqeа-hodisalarning ahamiyatlari tomonlari aks etadi. Ota-onalarning xizmati o'z farzandlariga munosib nomni topib qo'yishdan iboratdir. Qadimgi ota-bobolarimiz boshqa odatlar qatori ism qo'yish odatini ham tark etmaganlar. Ism tug'ilgan bolaning qaysi urug'dan, qanday sulolaning nechanchi avlodи ekanligi, uning tavallud topgan vaqtি, joyi, salomatligining ahvoli, bola tanasidagi alohida belgilari va boshqa omillarga qarab kitob ko'rib qo'yilgan. Bolaga ism qo'yish g'oyatda jiddiy mas'uliyatli udum sanalib, bu ism bo'lajak fuqaroning kelajak taqdiri, hayot yo'liga ta'sir qiladi deb tushunilgan. Shuning uchun urug', kasb-kor va sulola mavqeyiga mos ism qo'yish taqozo qilingan. Ism qo'yishda muvofiqlik – mutanosiblik bo'lgani tuzuk. Aytaylik, Muhammad, Temur, Ulug'bek, Jahongir yoxud Bobur deb ism qo'yilsa-yu, bola ulg'ayganda bu ismlarga munosib bo'lmasa, albatta, bunday nomlarning obro'yini to'kadi. Oddiy, kainsuqum ismdagi bola ulg'ayib, clu-yurtning nazar – e'tiborini tortadigan ulug' odam bo'lib yetishsa, o'z ismini oqlagan hisoblanadi.

Qorxat. Qish qadimda dam olish fasli hisoblangan. Qorxat o'yin-odati xalqimiz orasida juda qadim zamonlardan buyon yashab kelmoqda. Qorxat odati ajdodlarimiz yozuv madaniyatiga erta ko'chganlaridan dalolat beradi. Qorxat o'yini vositasida ular q'zlarining serhimmat, qo'li va ko'ngli ochiq, saxiy, badavlat xalq ekanliklarini namoyish qilganlar. Ayni paytda, qo'rxta yordamida

orasidan gap qochgan ayrim qabilalar, urug'lar, oilalar, quda-andalar yana yarashib, do'stlashib olishgan. Qorxat o'yinining qoidasi va shartlari nimalardan iborat bo'lgan? Avvalo qorxat birinchi qor yog'gan kuni yozilgan. Xat albatta jamoa bo'lib bitilib, tongda o'z egasiga maktub yo'llagan odam yo jamoaga yetkazishi shart bo'lgan. Qor gupillab yog'ib turgan kechasi qorxat yozuvchi taraf vakillari bir xonadonda to'planishib, tancha tevaragida tizilishib, xat-maktabning mazmunini yozganlar. Bu ham o'zbek xalqi orasida she'riy salohiyatga ega bo'lgan shaxslar ko'pligidan, xalqimizning shoirta'b xalqligidan dalolat beradi. Shuning uchun bu yig'inda shoirlar, baxshilar, turli hozirjavob, zukko va fozil kishilar ishtirok etishgan. Havaskor bolalar ham bu anjumanlarda shogirdlik xizmatini qilib albatta hozir bo'lishgan. Qorxat yozish bahonasida bu kecha she'r-xonlik, baxshilik, kitobxonlik, donishmandlar suhbat, askiyabozlik anjumaniga aylanib ketgan. Qorxatda uning shartlaridan biri oldin qoidasi aytilib, unda qorxat olib borgan kishi yoki bola xatni topshirgach, qaysi masofagacha uni tutish, qorxat shartlarini maktub keltiruvchining o'zining bo'yniga qo'yish, albatta, ko'rsatilgan. Qorxat yozgan tomonning vakili xatni egasiga yetkazib berarkan, boshqa bir gapni bahona qilib, suhbat orasida ushbu maktubni unga berib qo'yishni tayinlaganliklarini bildirib, qorxatni topshirgan. So'ng yugurgancha orqaga belgilangan marragacha qochgan. Qorxat ichida maktub bergen kishining qayerga, qaysi masofagacha aytgan joyida qorxat olgan kishi yetib olib, tutsa, qorxatda keltirilgan shartlarni maktub yuborgan taraf bajarishi aytilgan. Bu o'yinda goh maktub olgan, goh xat jo'natgan tomon g'olib chiqqan. O'sha kuni qishloqlarning ko'plab xonadonlarida qorxat bayrami o'tkazilgan. Shuning uchun ham qorxat yozgan odam nafaqat birovning ziyofatini yeb, maza qilish, balki shu ziyofatni ularga o'zi qilib berishga ham jiddiy tayyorgarlik ko'rib qo'ygan.

Topshiriq: Xalqimizga xos bo'lgan milliy urf-odatlarni to'plang.

## MILLIY MEROS VA UNING BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Reja:

1. Milliy sharqona tarbiya mezonlari.
2. Milliy ma'naviyat haqida tushuncha.
3. O'zbek xalqining o'ziga xos milliy a'analari.
4. Buyuk allomalarimiz milliy-ma'naviy merosining bola tarbiyasidagi ahamiyati haqida.

Davlatimiz sobit qadamlar bilan o'z taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Bu yo'l milliy xususiyatlар, qadriyatлarni tiklash, saqlash, rivojlantirish, milliy g'ururimizni uyg'otish, vatanparvarvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkura negizida kamolotga crishish yo'lidir. Milliy odob, milliy e'tiqod, imon, diyonat kabi insonning butun milliy xususiyatiga bog'liq fazilatlarni yosh avlodning shaxsiy sifatlariga aylantirish dolzarb vazifadir. O'quvchilarни tarbiyalash mezonlari mustaqillik tufayli yanada muhim ahamiyat kasb etgan shaxsning milliyligiga bevosita aloqador bo'lgan fazilatlarni singdirish tamoyilidan kelib chiqib belgilanadi. Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy buyurtmasi bo'lmish ijobiy sifatlar; milliy iftixor, vatanparvarlik, millatlararo muloqot madaniyati, milliy odob, vijdoniylik, imon-e'tiqod, milliy istiqlol mafkuraviy ongini rivojlantirish zarur. Ularning aksi bo'lgan salbiy sifatlar: milliy befarqlik, vatanfurushlik, xoinlik, manqurtlik, millatchilik mahalliychilik, vijdonsizlik, mafkurasizlik kabilarga nafrat uyg'otish darkor. Bu ishlarni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borish o'qituvchi-tarbiyachilar tomonidan maxsus mezon qilib olinishi kerak. Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda o'quvchilarning yoshi, aqliy imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

Ma'naviyat – (arab tilidan olingan bo'lib, "ma'nolar majmui" degan ma'noni bildiradi) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Ma'naviyat insonning butun umri davomida uning kuchiga kuch qo'shishga

xizmat qiladi, qadriyatlar, davlat, millat, shaxsning bcbaho xazinasi va taraqqiyot manbaidir.

Har bir millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning birligidan tashkil topadi. Ma'naviy meros o'tmishning yutug'i. Uni to'la, odilona egallash va rivojlantirish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir. O'z madaniy merosini, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik madaniyatsizlikdir. Ularni boyitib, yusak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyondir. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan insongina Vatan ravnaqи uchun kurashda o'zida kuch va qudrat topa oladi. Asrlar davomida xalqning ma'naviy chtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarida olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida yaxlit shakkantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan shaxs ma'naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy ma'naviyat va qadriyatlardan to'la bahramand bo'lмаган, ona tilini bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo'shmagan inson ma'naviy qashshoqdir. Ma'naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi.

Ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, ularda olg'a surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a'zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir. Har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash; o'zbek xalqi asrlar mobaynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish tadbirlarini ko'rish; qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot san'atni bilish va rivojlantirish; o'zbek tilini taraqqiy ettirish, respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lish; hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish; ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish; oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlash; ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida umuminsoniy

va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganishga erishish kabi shartlarni amalga oshirish lozim.

Umumiy ta'lif oldiga qo'yilgan muhim maqsad- umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta'lif-tarbiyaning mazmunida insonparvarlik g'oyasini kuchaytirish, xalqchillashtirish, uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonunida qayd qilinganidek, "...ta'lifda umuminsoniy va milliy madaniy qadriyatlarning ustuvorligi" ta'lif sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir. Jamiyat rivojlanib borgani sari insonlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ma'naviy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi. Bu borada ma'naviyatni besh guruhg'a bo'lib o'rganish mumkin.

Milliy ma'naviyat – muayyan millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan qimmatli ma'naviy boylikdir. Milliy ma'naviyat, avvalo, tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi.

Shaxs ma'naviyati – bu har bir shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy holati, xatti-harakatlarini o'z ichiga oladi.

Mintaqaviy ma'naviyat esa – muayyan geografik mintaqaga millatlariga xos, ular uchun umumiyy bo'lgan manaviy boylikdir.

Umuminsoniy ma'naviyat – bu butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo'lgan ma'naviy-axloqiy boylikdir.

Milliy tuyg'u – shaxslararo munosabat jarayonida, yuksak ma'naviy ichki tug'yonlarda, ijodi g'oyalari tug'ilishiда, milliy zavq kabi ichki kechinmalarda aks etadi.

Milliy meros – intelektual sohada o'tmishdag'i ajdodlarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan aqliy faoliyat natijalari, donnish-mandalarimiz ijodi namunalari, allomalarimizning adolatli jamiyat va komil inson tarbiyasini haqidagi ta'lifotlardir. Ta'lif-tarbiya jarayonida vatanimiz tarixi, madaniyati, ilm-fan arboblari, mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar to'g'risidagi bilim berish o'quvchilarda g'urur va iftixor tuyg'usini vujudga keltiradi. O'zbekistonning fan va texnikasi, unumdar yeri, tuprog'i, saxiy va zaxmatkash xalqi, foydali qazilmalari, jahon va umumxalq bozoridagi paxtasi, ipagi, qorako'l, oltini

salmog'i ochib berilishi o'quvchilarda milliy ongini o'stiradi, milliy o'z-o'zini anglashni takomillashtiradi. Ijtimoiy faoliyikni jadallahshtiradi, ularni ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi, fan asoslarini egallahsga qiziqishini oshiradi.

O'qitishda o'zbek milliy ta'lif metodlaridan, topishmoqlaridan, muammolaridan, topqirlik qilish mashqlaridan, ijodga undovchi vositalardan unumli foydalanish o'quvchilarda aqliy faoliyatini rivojlantiradi, aqlni peshlash mashqlari vazifasini bajaradi, axloqiy qobiliyatlarini o'stiradi.

Ota-bobolarimizdan xalqimizga meros qolgan saxiylik, mehmondo'stlik, rostgo'ylik, tantilik, sadoqatilik, poklik, odoblilik fazilatlari milliy xarakterning eng muhim jihatni hisoblanadi. Ushbu xislatlarni ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar ongida shakllantirish, ular ruhiyatini xalq durdonalar bilan boyitish, qadriyatlarning oqilonna tadbirlariga e'tiborini qaratish maqsadga muvofiqdir. Buyuk sharq allomalarining milliy-ma'naviy merosi bola tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy badiiy merosi juda boy va ko'p qirralidir.

U she'riy devonlar va yirik dostonlar yaratish bilan birga Markaziy Osiyoning XV asrdagi ma'naviy hayotni aks ettiradigan nasriy asarlar va ilmiy risolalar ham yozgan. Navoiy ilmiy va adabiy asarlarni yaratishda o'z davridagi olimlar, adiblar va shogirdlariga namuna bo'lgan. Uning deyarli barcha asarları tarbiyaviy-marifiy ahamiyatga ega. Shoirning besh dostonidan iborat shoh asari "Xamsa"da inson kamolotining barcha masalalarini qamrab olingan. Unda o'sha davr uchun dolbzarb axloqiy, tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon qilingan. Adolat, muruvvat, saxiylik, odob, kamtarlik, qanoat, insof, ishq-vafo, rostgo'ylik, do'stlik, o'zaro yordam va boshqa ajoyib fazilatlar, oddiy mehnatkashning jamiyatdagı o'mi ifoda-langan. Ana shu oljanob fazilatlar ta'rifida alohida-alohida hikoyalar berilgan.

Navoiyning didaktikaga oid asarlardan eng muhimi yuqorida aytilgan "Mahbubul qulub"dir. Kitob uch qismidan iborat. Birinchi qismda jamiyatning turli tabaqalari to'g'risida, ikkinchi qismda axloq va oljanoblik fazilatları to'g'risida so'z yuritilgan. Uchinchi qismida

csa tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'l-gan hikmatli so'zlar va maqollar berilgan.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan hozirgi davrda buyuk bobomiz Navoiy merosini yosh avlodga chuqur o'rgatishimiz zarur. Zeroki, u o'z asarlarida milliy iftixor, xalqqa, ona tiliga, Vatanga mehr-muhabbat bilan qarash g'oyalarini targ'ib qilgan.

Topshiriq: O'zbek xalqiga xos bo'lgan an'analarni to'plang.

## XALQ OG'ZAKI IJODI BOLA TARBIYASIDA MUHIM VOSITA

Reja:

1. Xalq og'zaki ijodi haqida tushuncha.
2. Xalq og'zaki ijodi namunalarining yosh avlod tarbiyasida tutgan orni.

Xalq pedagogikasi xalqning jamoa ijodkorligining mahsuli sifatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining tarixiy taraqqiyot bosqichini belgilab beruvchi tayanch manba hisoblanadi. U ko'p qirrali jarayon bo'lib, tarkibiy vositalarga: xalq og'zaki ijodi (asotir, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya); xalq tasviriy va amaliy san'ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san'at namunalari, xalq teatri, xalq musiqiy sana'ti); ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar, urfatlar, rasmlar, rasmlar, amaliy faoliyatdag'i ilg'or tajribalar majmuidan iborat. Xalq og'zaki ijodi ma'naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, urf-odatlari, an'analarini, diniy e'tiqodini o'zida mujassam etadi, orzu-umidlarini, mehnatga ijobiy munosabatini, vatanparvarligini, muhabbatga sadoqatini, erki, ozodligi yo'lidagi mardonavor kurashini, moddiy va ma'naviy chtiyojlarini, kelajak farovon turmushiga ishonchini ifodalaydi. Kelajak avlodni o'z davriga munosib bo'lishga, ma'naviy sog'lomlikka, vijdonan, e'tiqodan poklikka, insonparvarlikka, adolatga, dushmanga nisbatan shafqatsizlikka chaqiradi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida chuqur ilmiy asosga ega bo'imasada, ma'naviy qadriyatlarning ikkala guruhiga mansub bo'lgan barcha qadriyatlarning poydevori (insonparvarlik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, kattalarga hurmat, rostgo'ylik, mehmono'stlik va boshqalar) o'z aksini topgan.

– Xalq og'zaki ijodi namunalari mazmuni milliy asosga ega bo'lib, ikki tomonlama xarakterni o'zida mujassamlashtirgan. U xalqning tajribada sinalgan yuksak axloqiy-ma'naviy xarakter xususiyatlarini, tarbiya mezonlarini umumlashtirib xalq o'rtasida qadriyat darajasiga ko'tarilishida targ'ibot vazifasini bajarib keladi;

– Xalq og'zaki ijodi muhim ilmiy manba hisoblanadi. Tarbiya jarayonini aqliy jarayondan ajralgan holda tasavvur etib bo'lmaydi. Badiiy-estetik manbalar hissiyot orgali aqlni, aql orgali esa hissiyotni tarbiyalash vositasidir. Xalq og'zaki ijodining barcha janrlariga xos muhim xususiyat ham aqlan teranlik, mantiqiy fikrlesh asosida ma'naviy madaniyatning barcha qirtalarini ongli ravishda o'z-lashtirish va aksincha, ilg'or qadriyatlarni amaliyotga tatbiq etish orgali aqliy barkamolikka erishishni ta'minlashdan iboratdir. Ta'limiy va tarbiyaviy yagona maqsadni amalga oshirish xalq og'zaki ijodi manbalarining yetakchi g'oyasi hisoblanadi;

– Badiiy san'at asarlarida hissiy ta'sir yetakchi o'rinda turadi. Badiiy so'z epchil va chaqqon harakatlar, pantomima, imo-ishoralar tovushlarning ohangdorligi va musiqiy jozibadorligi (ud, do'mbira, nay, g'ijjak, garmon, doira, rubob, chang, qo'biz, chanqovuz, bo'lamon va b. q) badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy-estetik tafakkur ma'naviy mada-niyatning muhim bclgisi hisoblanadi;

– Badiiy-estetik an'analar tarixiy hodisa Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi ming yilliklarda ajdodlarimizning badiiy tafakkur mahsullari; asotir, maqol, matal, rivoyat, dostonlar vujudga kelgan. Unda xalqning czgu niyatları, orzu-armonları, axloqiy-ma'naviy fazilatları, an'anaları, urf-odatlari o'z aksini topgan. Demak, ma'naviy madaniyat kabi uning negizini tashkil etadigan moddiy va ma'naviy qadriyatlar ham tarixiy hodisadir;

– Xalq og'zaki ijodi uchun xos xususiyat ustoz va shogird an'anasi bo'lib, qachonlardir xalq tomonidan chtiyoj asosida yaratilgan, hayot sinovidan o'tgan, ustozdan shogird, avloddan avlod, ota-onadan farzand, og'zaki tinglash, og'zaki o'zlashtirish va kelgusi avlodga yetkazish yo'li bilan tarbiyada davomiylik, izchillik tamoyiliga asos solingen.

– Xalq og'zaki ijodida asos solingen ta'lif-tarbiya metodlari; buyruq, o'git, nasihat, namuna, o'mnak, murojaat, iltijo, kinoya, piching, kesatiq, yumshoq, zaharxanda, humoristik, tanqid, ma'qullash, olg'a surilgan tarbiyaviy g'oyaning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan poetik vositalar; mubolag'a, o'xshatish, sifatlash, bo'ittirish, mimika, pantomimo, pauza, metonimiya, metafora, didaktik tamoyillar, ta'lif-tarbiyada ko'rgazmalikka rioya etish, nazariyaning amaliyat bilan birligini ta'minlash, ijobiy fazilatlarga tayanib salbiylarni bartaraf etish; ta'lif-tarbiya vositalari; badiiy-estetik manbalar, maxsus uyuştilrilgan dramatik holat, ilg'or tajribalarga murojaat, musiqa asboblari, madaniy buyumlar, ashylardan ta'lif-tarbiyaviy maqsadda foydalanish o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirish uchun usul, tamoyil, vosita bo'lib ham xizmat qiladi;

– Xalq durdonalari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning muhim vositasi sifatida o'quvchi shaxsning butun faoliyati jarayonida amal qilinadi. Ularda olg'a surilgan ta'lif-tarbiya g'oyasi oila tarbiyasida, maktabda dars va darsdan tashqari faoliyatda, muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Folkloarning davrasi chegaralanmagan. Ularni kattalar folklori yoki bolalar folklori, kichik yoshdag'i yoki katta yoshdag'i o'quvchilarga mos folklor janri sifatida tasnif etish nisbiy karakter kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodiy merosi namunalariiga quyidagilar kiradi:

Asotirlar – Xalq donishmandlarining ilohiyot bilan bog'liq janri. Asotirlarda ezzulik va yovuzlik, adolat va razolat, nur va zulmat, boylik va faqirlik, go'zallik va badxulqlik haqidagi dastlabki qarashlar ilgari suriladi.

Asotirlarning pedagogik ta'sir kuchi o'quvchida xalq og'zaki ijodining boshqa turlari bilan qorishiq holda tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganishga chtiyojni o'stiradi dunyoqarashni

kengaytiradi, ma'naviy qadriyatlarning paydo bo'lishi va shakllanishi haqidagi tasavvurlarini boyitadi.

Afsona – o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimgi an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri. Hayotiy voqelikni xayoliy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar afsona deyiladi. "Afsona" atamasi forscha "afsun – sehr-jodu" ma'nosini anglatuvchi so'zdan olingan bo'lib, fantastika-uydirma asosida yaratilgan nasriy hikoyalarga nisbatan qo'llaniladi.

Rivoyatlar – voqelikni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiruvchi, syujet tizimida mifologik obrazlar uchramaydigan voqelik talqini hududiy-etnografik lokallik kash etishi bilan xarakterlanadigan, qadimiy asoslarga ega bo'lgan, xalq orasida keng tarqalgan folklor janridir. Unda hayot real aks ettiriladi. Rivoyatlar g'oyaviy-mavzuyl jihatdan rang-barang bo'lib toponimik va tarixiy rivoyat kabi turlarga ajratiladi.

Masal – so'zi arab tilida namuna, misol degan ma'noni anglatadi. Biron-bir fikrni tushuntiradigan bo'lsak, masalan, so'zini ishlatischimizning boisi ham shundan. Masal didaktik, ya'ni axloqiyta'limiy janrdir. Bu janrga mansub asarlar she'riy yoki nasriy shaklda bo'lib, kichik hajmda bitiladi. Masal majoziy, ko'chma ma'nodagi asar hisoblanib, unda jamiyat, insonlar hayotidagi voqealar, ular o'rtasidagi munosabatlar hayvonlar, qushlar, buyumlar, o'simliklar vositasida tasvirlandi. Bunday asar tanqidiy ruhda yaratilgani uchun unda hajviy tasvir, mutoiba, kinoya ustun bo'ladi. Masaldagi voqealar bayoni xuddi ertak, latifalarga o'xshasa-da asar yakunida ta'limiy xulosa chiqariladi.

Naql – o'zbek xalq og'zaki ijodida alohida, mustaqil, keng tarqalgan janrlardan biri. Turmushdag'i turli narsa va hodisalarini izohlashga qaratilgan axloqiy-didaktik mazmundagi ramz va majozga asoslanuvchi kichik og'zaki hikoyalar naql deb yuritiladi.

Doston – xalq ma'naviy qadriyatlarni qorishiq holda mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi shakllaridan biri bo'lib, unda fol'klor, musiqa, teatr, she'riyat kabi badiiy-cstetik qadriyatlarni butunlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badiiy haqgo'ylik yo'li bilan tinglovchiga yetkaziladi.

Hikmatli so'z – Chuqur o'tkir mazmunli, qisqa, aniq va lo'nda ibora, bayt, jumla hikmatli so'z bo'ladi. Hikmatli so'z xalq maqollaridan farqlanadi. Hikmatli so'zning muallifi aniq, uning qaysi manbadan kelib chiqqani, kim tomonidan aytilgani ma'lum bo'ladi.

Xususan Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"asari ham hikmatli so'zlarga boyligi bilan e'tiborni tortadi.

*Bilmaganni so'rab o'rgangan olim va orlanib so'ramagan o'ziga zolim.*

*Ko p degan – ko p yengilur, ko p yegan – ko p yiqilur.*

*Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.*

*Har kimki so'zi yolg'on, yolg'oni zohir bo'lg'on.*

*Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtarar.*

*Saxovatsiz kishi-yog insiz abri bahor.*

Ertak – xalq og'zaki badiiy ijodining eng qadimi, ommaviy, hajman yirik, katta-yu kichiklar uchun baravar qiziqarli bo'lgan janridir. Ular uzoq o'tmishda iqtisodiy ajdodlarimizning mifologik dunyoqarashi, qadimiylar urf-odatlari, marosim-lari asosida paydo bo'lgan.

O'tmishda ertaklar yilning ma'lum davrida belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan yoshi ulug', dono, hurmatli va e'tiborli kishilar tomonidan aytilgan. Odatda bunday professional ijrochilar *ertakchi* deb yuritilgan. Ertaklarning ayrim qismlari bevosita dramatik harakat yordamida ijro qilinadi. Bun-day ijroga amal qilinmasa, ertakning badiiy-estetik qimmati pasayadi.

Shakli, vazifasi, ish-harakati va holati jihatidan bir-biriga o'xshash ikki predmet, narsa va hodisadan jumboqlanib, ikkinchisiga xos o'xshash belgililar asosida uni topishga mo'ljallab she'riy yoki nasriy tuzilishda beriladigan savol yoki topishmoq Topishmoq deb yuritiladi.

*Topsa yarmini*

*Yarmini tashlar.*

(Arra)

*Erta bahorda kildi,*

*Sovuq tushsa to'kildi.*

(Barg)

*Ikki kabutar joyba-joy,*

*Ustlarida yarim oy.*

(Ko'z, qosh)

*Chiziladi ko 'kda qalamsiz,*

*Har xil bo 'yoq, rassomsiz.*

(Kamalak)

*Chiroq o 'chsa yordamga kelib,*

*Yog 'du sochib ko 'nglimiz.*

*Yonib-yonib ado bo 'lguncha,*

*To 'rt devorga rasmimiz solar.*

(Sham)

*Qo 'llardan sakrab qochar.*

(Sovun)

Maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z donolar yoki donishmandlar so'zi, oqillar va otalar so'zi atamalari bilan el orasida yurgan bu janr namunalari g'oyat ommaviy bo'lib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi.

Odobli obod qiladi, beadab barbod qiladi.

Beadabdan baxt qochadi.

Yigit – nasihatni olsa, keksayganda nasihat qiladigan bo'ladi.

Nasihatni olmagan dehqon - sho'r yerga o'xshaydi.

Odoblining istiqboli porloq.

Beadabga – ulug'lik begona.

Qo'shiq -qadimiylar lirik janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo'ljallab yoziladi. Qo'shiq, odatda, ikki xil bo'ladi: xalq qo'shiqlari va yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlar. Xalq qo'shiqlari juda qadimiylar tarixga ega. Ular dastlab mehnat jarayonida paydo bo'lgan. Qo'shiqlarda xalqning orzu umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan.

*Boychechagim boylandi,*

*Qozon to 'la ayrondi.*

*Ayroningdan bermasang,*

*Qozontaring vayrondi.*

*Qattiq yerdan qatalah chiqqan boychechak,*

*Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

*Boychechakni tutdilar,  
Tut yog ochga osdilar,  
Qilich bilan chopdilar,  
Baxmal bilan yopdilar.  
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,  
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.*

Latifa – zamirida tarixiy voqealar; maishiy hodisalar yotadi. Hajm jihatidan ixcham, mazmunan lo'nda. Latifalarda ziyraklik, o'tkir hajv, hozirjavoblik asosiy tamoyil hisoblanadi. Kulgu o'z o'rnila mahorat bilan, me'yorli qo'llanilsa, har qanday insonga qiziquvchanlik, yengil kayfiyat bag'ishlaydi.

Askiya-kulgu vositasida insonparvarlik g'oyalari, xalq ideali targ'ib etiladi, noaxloqiy sifaflar hajv ostiga olinadi. Askiya faqat o'zbek xalqiga xos qadimiy san'at turidir.

Alla – ijtimoiy-estetik qimmatiga ko'ra bolalarni uxlatish va bolaga tarbiyaviy estetik ta'sir ko'rsatish vazifalarini bajaradi. Alla odatda bola uch yoshga to'lgunga qadar aytildi.

Topshiriq: Xalq o'gzaki ijodidan namunalar to'plang.

## TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ISLOM TA'LIMOTI MANBAALARINING TUTGAN O'RNI

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda islom ta'lomi manbalari-ning tutgan o'mi.
2. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur'on Karim va Hadis ilmi haqida umumiyl tushuncha.
3. Mashhur hadisshunos olimlar asarlarida axloq odob masala-larinining ifodalaniishi.

Tarbiyaviy ishlar salohiyatini oshirish, bola qalbida insoniy fazilatlarni shakllantirishda islom ta'lomi manbalarining o'rni be-qiyosdir. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, o'z davlatchiligmizni shakllantirishda Islom ta'lomi manbalarining asosini Qur'on va Hadis

ilmini o'rganishga alohida ahamiyat qaratildi. Qur'on (arabchada-qiroat, o'qish) ma'nosini anglatib, 114 ta suradan iborat. Qur'oni Karim kishilarni tinch-totuv yashashga, birodarlikka, tenglikka, saxiylik va mehr-muhabbat ko'rsatishga undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy ahamiyatga ega. "Qur'on"ning axloqiy qimmati uning insonni ma'naviy kamolotga erishishida qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shuning uchun ham u necha asrlardan buyon insoniylikning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Islom odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik va ravnaqqa, mehnat qilishga hamda yer yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi.

Qur'oni Karimda ta'kidlanishicha, ota-onasi bilan muloqotda bo'-ladigan farzandlar besh narsani bilishi kerak. Muloqot chog'ida ular:

- ota-onalari qattiq-qurum gapirib yuborganlarida ham ularga malol kelib (uff) demasliklari;

- ota-onani xafa qiladigan so'z so'zlamasliklari;

- ota-onalariga doimo chtirom bilan yaxshi so'zлarni so'zlashlari;

- ota-onalariga doimo rahm-shafqat ko'rsatib, o'zlarini ularning oldida kamtar tutishlari;

- Allohdan ota-onalariga rahmat tilab, duo qilishlari lozim ekanligi uqtiriladi.

Ota-onalar bolani dunyoga keltirishga sabab bo'lganliklari uchun emas, balki uni odobli, hayoli, axloqli qilib voyaga yetkazganliklari uchun olqishga sazovordirlar.

Qur'oni Karimda kishilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni yaxshilash to'g'risida ham gap boradi va bu oliy darajadagi insoniy xislat bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi. Bu xislat xoh jamiyat miqyosida bo'lsin, xoh odamlar orasida bo'lsin tinchlik, osoyishtalik keltiradi. Shuning uchun ham kishilarning o'zaro aloqasini mustahkamlash musulmonchilik talablaridan sanaladi. Qur'oni Karimda insondagi eng zarur xislat sanalgan oliyjanoblik haqida ham fikr yuritiladi. Oliyjanoblik-yaxshilikni o'zi uchun emas,

boshqalar uchun ham zarurligini anglash istagidir. Demak, olivjanoblik ruhiy holat bo'lib inson kamolotini ko'rsatuvchi xislatdir.

Qur'oni Karimning ma'lum oyatlari shirinsuxanlikka, to'g'ri so'z va muomala madaniyatiga bag'ishlanadi. Chunki kishilarda shirinso'zlik, madaniy muomala taraqqiy etgan mamlakatdagina amalga oshadi. Shirinso'zlik insонning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, obro'sini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. "Kishilarga chiroyli so'zlar so'zlangiz" (Baqara surasi, 53-oyat).

Qur'oni Karimda insonni ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy shakllantirishda, bir so'z bilan aytganda komil insonni tarbiyalashda muhim manba ekanligi namoyon bo'ladi.

Qur'oni Karimdan keyin mo'tabar sanalgan Hadisi Shariflarda musulmonlarning moddiy va ma'naviy jihatdan barkamolligi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, o'zaro ahil bo'lish, mchr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqat, poklik kabi insoniy sifatlar haqidagi nasihatlari va yaxshi fazilatli bo'lish yo'llari bayon etilgan.

Hadis – arabcha hikoya, xabar, yangilik ma'nolarini anglatib Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom aytgan so'zları, qilgan ishlari va ko'rsatmalari to'plamidir. Uzoq vaqt davomida o'zining mashhur hadislar to'plamini yaratgan Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (809-870) juda boy va qimmatli meros qoldirgan. Ulardan „Al-Jome as-Sahih”(Ishochli to'plam) va „Al-adab Al-mufrad”(Adab durdonalari) degan asarlari mashhur bo'lib butun musulmon olamida tanilgan. Bu kitoblarga 1322 ta hadis kiritilgan. U bolalarning ota-onalari oldidagi burchi haqidagi masalalar bilan boshlanadi. Unda, shuningdek, kcksalar va yoshlar, qavm-qarindoshlar o'rtaida munosabat masalalari, ayollarning huquqlarini himoya qilish, tejamkorlik va isrofgarchilik, kishilar o'rtaсидаги do'stlik va burch haqidagi masalalar yoritilgan: Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom dedilarki: "Topilgan molning eng tozasi (pokizasi) kishining peshona teri bilan topilgan mol va beg'irrom halol savdodan topilgan pulidir" (128-hadis) Har bir odam, agarda ko'ngli tinch, hayoti saodatli bo'lishini istasa, u baxil bo'lmasligi, ko'ngilsiz holatlarga uchramaslikka harakat qilishi kerak.

Kamtarlik insoniy eng go'zal fazilatlardandir. Kamtarlik insonning madaniyati, odamiyligi, mardligi kabi xislatlar bilan belgilanadi. Insonning kamtarligi avvalo uning mehnatida namoyon bo'ladi. Kamtar kishida havoi-nafs, g'urur, manmanlik bo'lmaydi. U odoeb-axloqli, mehr-shafqatli bo'ladi. Ishida, so'zida qat'iy turadi. Islom dini ilmiga talabni ibodat darajasiga ko'taradi. Islom ta'limotiga ko'ra, ilm olishda erkak ham, ayol ham teng huquqlidir. Chunonchi, Payg'ambarimiz hadislarida ilm inson kamolotining negizi, egzulik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita sifatida izohlanadi. Ilm-ulug' hikmat, ilm-iyomon, e'tiqod. Demak, din asosini, Qur'oni Karimning mazmun-mohiyatini bilish, anglash uchun ham ilmli bo'lish, uni mukammal egallash kerak.

"Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir" (536-hadis).

"Ilm-u hunarni Xitoyda bo'lsa ham borib o'rganinglar" deb kishilarni ilm-hunar egallashga chaqiradilar. (126-hadis)

Qur'oni Karimda ilmga katta e'tibor berilgan va "ilm" so'zi 765 o'rinda tilga olib o'tiladi. Ilm o'rganish har bir inson uchun farzdir. Ilm o'rganishdan murod-mansab emas, avval o'qigan ilmiga o'zi amal qilib, so'ng xalq va Vatan oldidagi burchni ado etishdir.

Topshiriq: Tarbiyaga oid "Qur'oni Karim" oyatlaridan namunalar to'plang. Hadislardan tarbiyaga oid namunalar o'rganamiz.

## TARBIYAGA OID HADIS, RIVOYATLAR, ALLOMALARING HIKMATLI SO'ZLARI

Har bir yaxshilik sadaqadir.

*Imom Buxoriy rivoyati*

\* \* \*

Islomda o'ziga ham o'zgaga ham, zarar yetkazish yo'q.

*Ibn Mojja rivoyati*

\* \* \*

Musulmon kishi birodari bilan uch kundan ortiq gaplashmay yurishi halol emas.

*Termiziy rivoyati*

\* \* \*

Kimda to'rt xislat bo'lsa, foyda ko'ribdi: rostgo'ylik, hayo, chiroqli xulq va shukr.

*Ibn Abbos rivoyati*

\* \* \*

Musulmon kishi bemor birodari ziyyaratiga borsa, qaytib kelguncha jannat bog'lari ichida sayr qilib yurgan bo'ladi.

*Muslim rivoyati*

\* \* \*

Alloh menga vahiy qildi: "Kamtarin bo'linglar. Toki birov-birovga faxrlanmasin. Biror kishi biror kishiga zulm qilmasin."

*Muslim rivoyati*

\* \* \*

Qo'pol, bepara so'zлами gapirish Islomdan emas. Odamlar ichida islomi eng go'zali axloqi eng go'zalidir.

*Imom Ahmad rivoyati*

\* \* \*

Yaxshi narsani hech qachon arzimas sanama. Garchi biroda-ringni yuziga tabassum bilan qarash bo'lsa-da.

*Muslim rivoyati*

\* \* \*

Chaqimchi jannatga kirmaydi.

*Buxoriy rivoyati*

\* \* \*

Kim yomonlikdan saqlansa, Allohnинг o'zi uni yomonlikdan saqlaydi.

*Tabaroniy rivoyati*

\* \* \*

Kim yaxshi amalidan xursand bo'lib, yomon amalidan xafa bo'lsa, u mo'mindir.

*Ahmad rivoyati*

\* \* \*

Yaxshi ishga sababchi bo'lgan kishi uni ado etgan kabidir.

*Termiziy rivoyati*

\* \* \*

Do'zaxdan yarimta xurmo berib yoki bir og'iz shirin so'z aytib bo'lsa ham, saqlaninglar.

*Imom Buxoriy rivoyati*

\* \* \*

Aniqki, eng halol luqmangiz kasbingiz ortidan kelgan huqmadir.

*Termiziy rivoyati*

\* \* \*

Qaysi bir musulmon biror daraxt yoki ekin eksa va uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajru savob ato etiladi.

*Buxoriy rivoyati*

\* \* \*

Kim rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariiga mehr oqibatli bo'lsin.

\* \* \*

Elga sharaf kelmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayo-yu adab.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjumand,

Past etar ul haylni charxi baland.

*A. Navoiy*

\* \* \*

Hayo-insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.

*Abu Ali ibn Sino*

\* \* \*

Takabburlik va zulm-ulug'likning ofati, hilm va tavoze-insonning ziynati, sharm-hayo uning eng go'zal yoqimli libosidir.

*Suqrot*

\* \* \*

Inson dunyonи qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi.

\* \* \*

Hayo inson uchun eng sharafli va maqbul xislatdir. Hayo imon daraxtining shoxidur va olam barqarorligiga sababdur.

\* \* \*

Odob, bu yomon so'zdan va yomon ishdan o'zini tiymoqdur hamda o'zining ham, o'zganing ham izzatin saqlab, obro'sini to'kmaslikdur.

\* \* \*

Mehribon va rahmli bo'lmoq umrning va rizqning barakali bo'lishiga sabab bo'ladi.

\* \* \*

Hech kim ishni bamaslahat qilganidan ziyon ko'rgan emas.

\* \* \*

Ustoz va muallimlar hurmatini o'rniga qo'yganlar bu dunyoda ham, oxiratda ham baraka-yu saodat topar.

\* \* \*

Yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lish va donolar bilan muloqot qilish saodatga elitar.

\* \* \*

Ulug'lar aytibdurlarki, barcha insonlar aqlga muhtojdirlar. Aql esa tajribaga suyanadi. Chunki tajriba aqlning oynasidur. Hayot tajribasi ko'p umr ko'rish natijasida hosil bo'ladur.

\* \* \*

Yaxshilar bilan hamsuhbat bo'lish baxti davlat keltiradi. Yomonlar bilan birga bo'lish afsus va nadomatga yo'liqtiradi.

Odobning o'g'li. Bir kuni xalifa Ma'mun odob bilan so'zlayotgan bir boladan: "Kimning o'g'lisan?" – deb so'radi. Bola: "Odobning o'gliman", – deb javob berdi. Bu javobni eshitgan Ma'mun: "Qanday chiroyli otang bor ekan-a", – deb unga tabsin o'qidi.

Odobning foydasi. Odob bir bulutki, uning tomchi yomg'iri yaxshi kishilarning amal ekinzoriga yog'sa umid polizini abadiy ko'kalamzoriga aylanadi va yaxshi nom hosilidan foydalar xirmonini barpo qiladi.

Rivovat: Qadim zamonda uchta sarkarda oralarida kim kuchliroq ekanini sinab ko'rmoqchi bo'libdi. Buning uchun ular shogirdlarini chaqirishibdi. Har bir sarkarda shogirdlariga navbat bilan ustoziga toshlar otib turishni buyuribdi. Birinchi sarkarda uchib

kelayotgan toshlarni ustalik bilan qaytaribdi. Ikkinci sarkarda ustalik bilan toshlarga chap beribdi. Uchinchi sarkardaga esa birorta ham shogirdi tosh otmabdi.

Xulosa – Ey farzand, bilgilki, ilmning boshi odob va axloqdir. Ular bo'lmagan joyda hech qanday ilmu hunar naf bermaydi.

Rivoyat:

Bir kuni Luqmoni hakimdan so'rashdi:

– Sen donishmandlikni kimdan o'rganding?

Ko'rlardan. Ular atrofni ko'ra olmaganları sababli ko'p qoqildilar, to'siqlarga uchraydilar, yiqiladilar.

Xulosa:

Ey farzand, agar ko'zing ochiq bo'lsa, atrofingdagilarning bosayotgan qadamlariga razm sol. Shunda hayot yo'lingda kamroq qoqilasan.

Rivoyat: Yo'l yoqasida bir gadoy tilanchilik qilib turar edi. Bir otliq odam yonidan o'tib ketayotib qamchisi bilan uni bir urdi va yo'lida davom etdi. Gadoy uning orqasidan qarab:

- Baxtli bo'! - dedi. Buni ko'rib turgan bir yo'lovchi:

- U seni ursa-yu sen unga baxt tilasang, bu qanaqasi? – deb so'radi.

- Shunda tilanchi: - Agar u baxtli bo'lganida meni urmas edi! – deb javob berdi.

Rivoyat: Bir bolaning buvasi hayot saboqlaridan gapirib nabirasiga shunday dedi:

- Bolaginam, har bir insonning ichida go'yo ikkita bo'ri yashaydi. Ular doimo bir-biri bilan kurashadi. Bo'rilarning biri ochko'z, badjahl, yolg'onchi va hasadchi bo'lsa, ikkinchisi rostgo'y, mehribon, ochiqko'ngil va saxiyidir.

Buvasingaplaridan ta'sirlangan nabira so'radi:

-Buvajon, oxirida qaysi bo'ri yutib chiqadi?

-Sen qaysi bo'rini ko'proq boqsang, o'shanisi yutib chiqadi, - dedi buvasi.

Xulosa.

- Ey farzand, sen hayotda rostgo'y, mehribon, ochiq ko'ngil va saxiy bo'lgin, ana shunda xotirjam bo'lsan. Tinchlik va xotirjamlik katta ne'matdir.

## TARBIYA METODLARI HAQIDA TUSHUNCHА. XALQ VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA TARBIYA METODLARI

Reja:

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
2. Xalq va zamonaviy pedagogikada tarbiya metodlari.

Tarbiya metodlari – o'qituvchi – tarbiyachining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish metodi, ularga ijobiylar xulq – atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir. Aniqrog'i, tarbiya metodlari deb tarbiyachining bolalarga axloq – odob fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularning ongi va irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytildi. Tarbiya metodlari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgandir. Bolalarda insoniy his – tuyg'ularni tarbiyalashning asosi – kishilarga mchr – muhabbat qo'yish, izzat – hurmat bilan muomala qilish, insoniy huquqlarni himoya qilish, qadrlash, kishilar oldidagi o'z burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostgo'y bo'lish kabi odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek – xalq pedagogikasida ham metodlar guruhlangan. Bu metodlar axloq, odob va tarbiyaning barcha tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya metodlari, vositalardan foydalanilgan. Bu metod va vositalar niroyatda xilma-xil bo'lib tarbiya jarayonini mazmunli va natijali qilishda muhim o'rinn tutadi. Chunki bu metodlar pedagogikaning shakllanishi bilan takomillashib boraveradi.

Xalq tomonidan yaratilgan va xalq tarbiyashunosligidan keng o'rinn olgan metodlarni quyidagicha guruhlash mumkin.

Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish)

Namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar to'grisida so'zlash, o'rnak bo'lish).

Nasihat, o'git (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istik bildirish, ma'qullah, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'il tilash va h.k.)

Qoralash va jazo berish (ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, qo'rqtish, nafratlanish, ont, qasam ichirish, urish, kaltaklash va hokazo).

Mayjud metodlari umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Oldin

umumiy bir narsa tushuntiriladi, so'ngra talab qilinadi. Agar bola bivor bir narsani tushunmasa, tarbiyachi namuna vositasini o'taydi. Nasihat qilinadi, o'git orqali bolaning idrokiga yetkaziladi.

Xalq pedagogikasining namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar aniq bir vositalar yordamida amalga oshirilgan. Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar (choyxona, to'y marosim) sayllar, turli nishonlashlar, musobaqalar, turli marosimlar kabi o'ziga xos tarbiya metodlar qo'llanilgan. Hozirgi zamon pedagogikasida qayd qilib o'tilgan metodlarni faoliyatga qo'llash ishlarini osonlashtirish maqsadida ularni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lib tavsiflash.

Xalq pedagogikasida (ota-onalarning tarbiyaviy faoliyatida) o'qituvchilarning tarbiyaviy tajribalariarda mustahkam o'rin egallaydi. Zofan, tarbiyaning o'zi o'rgatishdan boshlanadi. Ota-onalar bolalarini hali juda kichik vaqtidanoq vaqtida uxlash, o'z buyumlarini yaxshi tutish, odobli bo'lism, kattalarni hurmat qilish ota-onalar bilan va katta yoshdagi kishilar bilan xushmuomala bo'lism kabi fazilatlarga o'rgatadilar.

Chunonchi, tushuntirish, odatlantirish (o'rgatish, mashq qildirish), bolalarning kundalik hayot tartibidan, ibrat (namuna, o'rnak) ko'rsatish, maslahat berish, o'git-nasihat, undash, ko'ndirish, iltimos qilish, istak bildirish, ma'qullash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, ta'qiqlash, ma'n etish, ta'na, gina (o'pka) qilish, qoralash, Allohdan qo'rqishga undash, tanbeh berish, uzr so'rash, majbur qilish, mazax qilish, ayblash, uyaltirish, ko'yish, qo'rqtish, nafrat bildirish, aybiga iqror qildirish, la'natlash, jamaa hukmiga havola qilish kabi metodlilar tarbiyada qo'l kelganligi ta'kidlanadi. Jumladan, mehnat jarayoni: turli shakldagi hasharlar, o'z-o'ziga xizmat, ijtimoiy – foydali ishlar, kasbga yo'llash ishlari;

– bolalar o'yini, choyxona gurungi, halfana, to'y marosiimlari – aqiba, beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi;

– sayillar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli ;

– yig'in – tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz majlisi, istirohat bog'larida bo'lism, ommaviy yig'in hamda tomosha-larga qatnashish (va hokazo) tarbiyaviy vosita sisfatida xizmat qilib kelgan.

Tarbiyaviy vosita ancha keng tushuncha bo'lib, har qanday tarbiyaviy vazifani hal qilish uchun qo'llanilayotgan usuliy yo'lning muvaffaqiyatli chiqishiga ko'maklashadi. Tarbiyaviy vositaga turli xil predimetlar, faoliyat turlari, tarbiyaviy maqsadda qo'llanayotgan texnika uskunalarini, ko'rsatmali qurollar, ajdodlarimiz merosi, xalq og'zaki ijodi namunalari, bolalar adabiyoti, ommaviy aloqa vositalari (radio eshittirish, mактаб radiosи, oynajahon ko'rsatuvi yoki kinofilm va boshqalar)ni kiritish mumkin.

Mohir tarbiyachi bolaga tarbiyaviy ta'sir etishda uning yoshi va shaxsiy xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasi, o'zi bilan bola o'rtasida vujudga kelgan munosabat, o'quvchi intilishlarining o'ziga xosligi, bolaning ko'zlagan maqsadi-ni hisobga olib, bolaga ta'sir etishning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan metodni to'g'ri tanlay oladi.

Topshiriq: Xalq pedagogikasiga oid tarbiya metodlarini to'plang va tahlil qiling.

## **IJTIMOIY ONGNI SHAKLLANTIRUVCHI METODLAR**

Reja:

1. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodi haqida tushuncha.
2. Ibrat-namuna metodi shaxs shakllanishida tarbiyaviy vositadir.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlarga quyidagilar kiradi: tushuntirish, suhbat, hikoya, pand-nasihat qilish, duo qilish, ibrat-namuna. O'quvchi shaxsini g'oyaviy va axloqiy shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi asos. Bu metodlar o'quvchilarni madaniyatli, g'ururli qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu metodlar uchun mavzular – Vatanimiz tarixi, ajdodlarimiz hayoti va faoliyati, mustaqil davlatimiz ramzları, mamlakatimizdagi bayramlar, axloq-odob, Vatanimiz boyliklari, adabiyoti, san'ati, zamondoshlarimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlari, xalqimiz urfodatlari, an'analari kabilalar haqida o'tkaziladi. Bu metodlar ishontirish metodlari deb ham ataladi. Bu metodlar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch e'tiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'ulari va irodasiga har

tomonlama ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan. Bola shaxsining shakllanish jarayoni, asosan, kundalik turmush va faoliyatda hosil qilinadigan tajriba, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarga bog'liq. Ta'lim jarayonida ishontirishning tarbiyaviy jihatdan muhim va qimmatli bo'lgan tushuntirib berish va ishontirish, hikoya va suhbat, sinfdan tashqari o'qish, namuna ko'rsatib ishontirish singari shakl va metodlaridan keng foydalaniladi.

Tushuntirish va uqtirish. Tushuntirishning mohiyati jamiyatning ma'naviy va moddiy hayotidagi eng muhim voqealar to'g'risida axborot berish asosida o'quvchilar diqqatini tevarak-atrofdagi voqe-likka, o'z fuqarolik burchlariga ongli munosabatni shakllantirishga qaratishdan iboratdir. Ko'pincha, o'quvchilarning o'z burchlari to'g'risidagi bilimlari tasodifiy, yuzaki bo'ladi. Tushuntirishdan maqsad biron-bir voqe, xatti-harakat, hodisaning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini ochishda, xulq-atvor va insoniy munosabatlarni to'g'ri baholay olishda o'quvchilarga yordam berishdir.

Uqtirish biror axloqiy fazilatni o'quvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan uqib olinishini ta'minlashga asoslanadi. Shuning uchun o'qituvchilar va tarbiyachilar o'quvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliliklarini ko'rsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. Bola shaxsi maktabga ilk qadam qo'ygan kunidanoq maktabning ichki tartib qoidalari bilan tanishtiriladi. Maktabga vaqtida klesh, belgilangan formada yurish, intizomli bo'lish, baqirmsaslik, urushmaslik, o'rtoqlarining buyumlarini ruxsatsiz olmaslik kabi "O'quvchilar qoidalari" tushuntiriladi. Hatto yod oldiriladi. "O'qigandan uqqan yaxshi" degan xalq maqoli bor. Uqib olingen axloqiy fazilat bolada mahkam singib qoladi. Uqtirishning natijali chiqishi, hammadan burun, tarbiyachining obro'siga bog'liqdir. Agar tarbiyaluvchi o'z tarbiyachisini izzat-hurmat qilsa, unga ishonsa, uning o'git-nasihatlariga qulq solsa, uqtirish natijasi samarali bo'ladi. Ibrat-namuna metodi. Bolalar tarbiyasida ibrat-namunaning ahamiyati kattadir. Namuna yoki ibrat metodi bolalardagi taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqa-larning xulq-atvorini, yurish-turishini ongли

yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir. O'qituvchilar, tarbiya-chilar va ota-onalarning o'zları, hammadan burun, bolaga namuna bo'lmoqlari, o'zlarida eng yaxshi fazilatlarni aks ettirmoqlari kerak. O'quvchilar o'z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko'rishlari va ulardan ijobiy namuna olishlari nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, o'quvchilar ibrat uchun namunalarni ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan, fan, adabiyot va san'at arboblari hayoti va faoliyatidan, xalq og'zaki ijodi, bolalar adabiyoti, maktab, sinf hayoti, ota-onalar faoliyatidan olmoqlari kerak. O'quvchilar quyidagilardan namuna oladilar:

1. Ota-onsa namunasi.
2. O'qituvchi xatti-harakati.
3. O'rtoqlari namunasi.
4. Ilg'or kishilar namunasi.
5. Adabiy asarlar, filmlar qahramonlari xatti-harakati.
6. Nasihat, pandnoma.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Otabobolarimiz o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar.

Bolalar faqat yaxshi xislatlarga emas, ba'zan yomon sifatlarga ham taqlid qiladilar. Shuning uchun kattalar har qanday holatda ham o'zlarini tuta bilishlari kerak. Xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmagan.

#### Pedagogik vaziyat.

Masala 1. Anvar o'g'liga o'yinchoq mashina olib keldi. O'g'li xursand bo'lib mashinasini hovlida o'ynayotgan edi, amakisining o'g'li chiqib mashinani talashdi. Ular janjallashib bir-birlarini mashina bilan ura boshlashdi. Bu voqeani kuzatib turgan oila a'zolari qanday yo'l tutishdi?

Masala 2. Aziz bugun matematika va o'qish fanlaridan "5" baho oldi. U juda xursand. Kechqurun dadasi ishdan charchab, horib kelgach, Aziz sevinchini yashira olmay baholarini dadasiga ko'rsatishga oshiqdi. Shunda onasi "O'g'lim dadang ishdan charchab kelganlar" deb uni qaytardi. Dadasi qanday munosabatda bo'ldi ?

Topshiriq: Pedagogik vaziyat yaratish va yechish.

## O'QUVCHILARNI FAOLIYATGA UNDOVCHI METODLAR

Reja:

1. O'quvchilarni faoliyatga yo'naltirishda o'rgatish, topshiriq berish, mashq qildirish metodlarining o'mni.
2. Bola hayotida o'yin faoliyatining o'mni.

Bola rivojlanishini, o'zligini belgilashning asosiy omili-bu faoliyatdir. Faoliyat o'quvchilarni bilimlarni va hayotiy tajribalarni mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

O'quvchilarni faoliyatga undovchi metodlar quyidagilar:

1. O'yin.
2. O'rgatish.
3. Mashq qildirish.
4. Topshiriqlar berish.
5. Talablar qo'yish.

O'yin. Bolalarning hayoti asosan o'yin orqali namoyon bo'ladi. Bolalar o'yin orqali bir-birlari bilan aloqa bog'laydilar, tasavvur, fikrash qobiliyatlari shakllanadi, takomillashadi,

O'yin bolalarni xursand qiladi va tetiklashtiradi. Bola hayotida o'yinlarning rang-barang bo'lishi va jamiyatimiz maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etilishi muhimdir. O'yin-yetakchi faoliyat turidir. Utufayli o'quvchi ruhiyatida muhim o'zgarishlar ro'y beradi, shaxs rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. O'yin erkin faoliyat bo'lib u faqat o'yin natijalaridan iborat emas, balki u o'zidan ham quvonch, ham qanoatlanish hissini keltirib chiqaradi, bolalarda faol, ijodiy, shirin kechinmalar hosil qiladi. O'quvchi bilan olib boriladigan ishda o'yin metodidan turlicha foydalaniadi. Hozirgi paytda o'yin metodlaridan dars jarayonida ham keng foydalanimoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Masalan: turli harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va sport o'yinlari katta ahamiyatga ega. O'quvchilar jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarni yoqtiradilar. Bundan tashqari, bolalar aqliy jihatdan o'stiradigan, yuksak axloqiy jihatdan tarbiyalaydigan o'yinlarda ishtirok etadilar. Masalan: jamoa bo'lib adabiyot, matematikaga oid topishmoqli o'yinlarda, rebuslar, krossvordlar

tuzish, topishmoqlar to'qish va javob topishda ishtirok etish, bilag'onlar, o'tkir zehnlilar kabi o'yin-mashg'ulotlar bolalarning saviyasini oshiribgina qolmay, balki ularda tashabbuskorlik va ijodiy qobiliyatni ham o'stiradi.

O'rgatish – Ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir. O'zini boshqarishga, jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar asosida xatti-harakatlar qilishga, ijobjiy fazilatlarni tarkib toptirishga o'rgatiladi. Masalan, o'z buyumlarini yaxshi tutish, odobli bo'lish, kattalarni hurmat qilish, hamma bilan xushmuomala bo'lish kabi fazilatlarga o'rgatadi. Bolalarni yaxshi fazilatlarga o'rgatishda quyidagi xalq maqollaridan keng foydalanish lozim "Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l", "Odobning boshi salom", "Odob inson ziynati". Bola ziyrak, fahm-farosatl bo'lsa, darrov payqab oladi. A.S.Makarenko bunday degan edi: "Umuman shunga intilish kerakki, yaxshi odatlar bolalarga mumkin qadar mustahkam singib borsin, buning uchun ularga yaxshi xatti-harakatlarni doimo takrorlab turishi juda muhimdir. Yaxshi xatti-harakat to'g'risida hadeb muhokama yuritish va hadeb gap sotish esa har qanday yaxshi tajribani ham buzib qo'yishi mumkin".

Mashq qildirish – Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud; faoliyatda mashq qilish: berilgan topshiriqlarni bajarish, ish joyini tartibga keltirish kabi;

– kun tartibidagi masliklar: har kungi xatti-harakatlar: o'z o'mini to'g'irlash, yuvinish, ota-onaga va oilaning boshqa a'zolariga salom berish kabi;

– maxsus mashqlar – bo'sh vaqtida shug'ullanadigan faoliyatiga oid mashqlar (sport, badiiy, kasbiy yo'nalishlar bo'yicha qatnashayotgan to'garaklar) kabi.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari muktabda, oilada o'rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog'liq o'z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanish odatiga o'rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko'nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq – O'quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarishlari ularga ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida

ahamiyatga egadir. Topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilar o'z kuchlarini umum ishiga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar.

Topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin: tashkiliy topshiriqlar (turli-tuman tashkiliy ishlari, saylovlari, sinf faollarini belgilash va ularni yo'naltirish ishlari);

- otaliq topshiriqlari (otaliqqa olingan kichkintoylarga yordam yushtirish, fermer xo'jaligi ishlab chiqarish korxonalariga ko'mak berish);

- ijtimoiy-ma'rifiy topshiriqlar (bolalar va o'smirlar harakatida qatnashish, devoriy gazeta chiqarish va hokazo);

- sport o'yin topshiriqlari;

- Topshiriqlar bolaning yoshi, kuchi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda berilishi lozim. Oiladagi mehnat taqsimotida, maktabdag'i sinfdan tashqari ishlarda, ijtimoiy-foydali ishlarda bolaga mos topshiriqlar berish ahamiyatli. Rola shaxsining hayotda o'z o'mrini topishida bajarilgan topshiriqqa atrofdagilarning ayniqla kattalarning munosabati muhimdir. Mehnat qilish bolaning xarakterini shakllantiradi, mustahkamlaydi.

Pedagogik talab – o'quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi; oqilona harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin. Pedagogik talab qo'yganda adolatli va haqqoniylilik muhimdir. O'quvchilarda qo'yilgan talablar albatta nazorat qilinishi muhimdir. Masalan: Darsga o'z vaqtida maktab formasida yetib kelish.

## IJOBİY XATTI-HARAKATGA UNDOVCHI METODLAR

Reja:

1. Ijobiy xatti-harakatga undovchi metodlar turlari.

2. Ijobiy xatti-harakatga undovchi metodlarga nisbatan talablar.

O'quvchilar atrofdagilarning o'zlariga nisbatan munosabatlarini hamisha his qiladilar. Kattalarning ularga ishonishi, hurmat qilishi, undagi qobiliyat va fazilatlarni e'tirof etishi o'quvchining ko'nglini

ko'taradi, unga quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga intilishiga yordam beradi.

Ijobiy xatti-harakatga undovchi metodlarga rag'batlantirish va jazolash metodlari kiradi.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Rag'batlantirish – pedagogik ta'sir ko'rsatish usulidir. O'quvchilarning, bolalar jamoasining xatti-harakatlari va ishlarini ijobiy baholash uning asosini tashkil qiladi. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilar xulq-atvorida ijobiy xislatlarni ko'paytirib, mustahkamlashga yordam beradi. Unda rag'batlantirilgan o'quvchilargina emas, balki butun sinf zaruriy saboq oladi. Buning natijasida o'quvchilar jamoasida ishni yanada yaxshi bajarishga, tartib-intizomli bo'lishga, ishonchni oqlashga intilish yuzaga keladi.

#### Rag'batlantirish turlari:

1. Tashakkur bildirish.
2. Ishonch bildirish-boladagi o'ziga, o'z kuchiga bo'lgan ishonchni oshiradi, ijobiy jo'shqin kayfiyat uyg'otadi.
3. Maqtov yorlig'i berish-yaxshi xulqi va a'lo baholari uchun chorak yoki o'quv yili yakunida beriladi.

4. Hurmat taxtasiga suratini qo'yish-sinfda o'rtoqlariga o'rnak ko'rsata organi uchun

5. Estalik sovg'a berish.
6. Safda birinchi o'ringa qo'yish.
7. Mukofotlash.
8. Stipendiya bilan taqdirlash.
9. Ota-onaga rahmatnomasi bildirish.

Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi, o'quvchini yanada yaxshiroq bo'lishga intilishiga yordam beradi. Ammo noto'g'ri rag'batlantirishlar ayrim o'quvchilarda va jamoalarda o'z-o'zidan mag'rurlanish, o'z-o'ziga yuqori baho qo'yish, o'rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy xislatlarni tarbiyalashi mumkin. Maqtov, tashakkur, mukofot jamoa a'zolarining fikr mulohazariga asoslangan bo'lsagina, ko'zda tutilgan maqsadlarga erishiladi.

#### Jazo turlari:

1. Tanbeh berish – eng yengil jazo chorasisidir. O'qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

2. Uyaltirish – odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo'lsa, avvalo, o'zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyojkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi.

3. Jamoada muhokama qilish – o'quvchiga jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa uning ta'sir kuchi yana oshadi.

4. Oghlanlantirish – noma'qil xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

5. Xayfsan berish – agar tanbeh va oghlanlantirish kutilgan natijani berimasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomini qanday shareitda buzganini e'tboriga olib unga xayfsan e'lon qilish mumkin.

Rag'batlantirish va jazolash metodlariga qo'yiladigan talablar:

1. O'quvchiga tan jazosi berish mumkin emas.

2. Rag'batlantirish va jazolash metodlari navbatlantirib turiishi va haqiqiy xizimatga muvosiq bo'lishi kerak.

3. Rag'batlantirish va jazolash faqat bir o'quvchiga yo'naltirilishi va ketma-ket qo'llanilishi mumkin emas.

4. Metodlar oddiy, sodda shakldan yuksaltirib, chuqurlashtirib borilishi va yaxshi o'ylab, haqqoniy qo'llanilishi lozim.

Topshiriq: Amaliyotda rag'batlantirish va jazolash metodlarini o'z o'rniда qo'llanilishini kuzatish

## **O'Z-O'ZINI TARBIYALASH METODLARI**

Reja:

1. O'quvchi shaxsida irodaviy sifatlarni shakllantirishda o'z-o'zini tarbiyalash metodlarining o'rni.

2. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari turlari.

O'quvchida o'z-o'zini tarbiyalashga, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo'ladi. O'quvchilarni, ayniqsa, o'rta va katta yoshdagilarni o'zi bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo'llash kerak.

O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o'z-o'zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtida paydo bo'ladi. O'z-o'zini tarbiyalashda maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim, bunda o'quvchilarni o'zlariga, xatti-harakatlariiga tanqidiy ruhda munosabatda bo'lishga o'rgatish juda muhiindir. O'quvchilar muayyan vaqtga belgilangan vazifalarni bajarish uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo'yadilar.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari quyidagilardir:

1. Shaxsiy majburiyatlar olish amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan-dagina shakllanadi. Bola shaxsi o'z-o'zini axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual jihatdan tarbiyalashda muayyan vaqtga belgilangan vazifalarni bajarish uchun majburiyat oladilar. Ayrim o'quvchilar bu majburiyatlarni kundalik daftarlariiga yozib qo'yadilar. Shundan so'ng vaqt-vaqt bilan o'zlarini va otagonalari oldida oлgan majburiyatlarning bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o'z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi.

2. O'z-o'zini nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish turishi, intizomi, ijobjiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

3. O'z-o'zini tahlil qilish. O'quvchining o'z oldiga qo'ygan vazifalarini qanchalik bajargani, bajarilmagan ishlarning sabablari va mavjud bo'lgan to'siqlarni yengib o'tish yo'llarini aniqlash o'quvchidan iroda kuchini talab qiladi. O'z-o'zini tahlil qilishda o'ziga ob'ektiv munosabatni shakllantirish g'oyat muhim. O'z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilish, xatti-harakatlari haqida o'yashga o'rgatadi. O'quvchida o'z kuchiga, qobiliyatiga ishonchni tarkib toptiradi.

4. O'z-o'zini baholash. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqarishiga yordamlashish zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Shu bois o'quvchi irodali bolishi, o'z burchini tushunishi, tahsil-tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo'lishi, ya'ni tahsil va tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlarining, yaqin kishilarining ko'zi bilan ko'rishi va o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o'ziga chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Topshiriq: Tarbiyaviy mashg'ulot ishlansasi tuzing.

**“CHARXPALAK”**  
**texnologiyasi asosida tarbiya metodlarini o’rganish**

T/r	Tarbiya metodlari	Jitmoiy ongni shakilchi metod	O’quvni faoliyatga undovchi metod	Ijobiy xatti harakat-ga undov metod	Oz-o’zini tarbiyalash metod
1	O’rgatish				
2	O’z-o’ziga hisob berish				
3	Nasihat				
4	O’yin				
5	Uyaltirish				
6	Mukofotlash				
7	Topshiriqlar berish				
8	Hikoya				
9	Mashq qildirish				
10	O’z-o’zini nazorat qilish				
11	Tushuntirish, uqtirish				
12	Shaxsiy majburiyatlar olish				
13	Ishonch bildirish				
14	Ibrat, namuna				
15	Hurmat taxtasiga suratini qo’yish				
16	Safda birinchi o’ringa qo’yish				
17	O’z-o’zini baholash				
18	Tanbeh				
19	Pedagogik talab				
20	Hayfsan berish				
21	Estalik sovg’asi berish				
22	Tashakkur bildirish				
23	Maqtov yorlig’i berish				
24	Ogohlantirish				
25	O’z-ozini tahlil qilish				
26	Jamoat izzasi				
27	Stipendiya bilan taqdirlash				
28	Ota-onaga rahmatnomma bildirish				

## Mashg'ulot ishlansasi

Sana:

Sinf: 4-“A”

Mavzu: “Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan”

Maqsad:

a) tarbiyaviy: O'quvchilarga Vatan dunyodagi eng qadrli, muqaddas maskan ekanligini tushuntirish orqali Vatanni qadriga yetish kabi yaxshi insoniy fazilatlarni ularning ongiga singdirish;

b) rivojlantiruvchi: Vatanning qadriga yetish va unga munosib farzand bo'lishga intilish ruhida tarbiyalash.

Vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirish.

**Mashg'ulot metodi:** Suhbat, tushuntirish, namuna, ko'rsatish, hikoya, rag'batlantirish.

**Mashg'ulot usuli:** “Charxpalak” texnologiyalari

**Mashg'ulot jihat:** Vatanimiz manzaralari, timsollari va shaharlari aks etgan turli xil rangli ko'rgazmali qurollar, slayd, shablonlar, multimediyalar.

O'tkazish joyi: Sinf xonasi.

**Mashg'ulotning borishi.**

### I. Tashkiliy qism

a) salomlashish;

b) o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorlash;

d) ma'naviyat daqiqasi o'tkazish;

Mashg'ulot Vatan haqidagi qoshiq bilan boshlanadi;

Muhammad Yusuf “Ulug'imsan-Vatanim.”

Boshingda vataning bor baxtiyordirsan.

Bu haxtni jonda saqla, toki borsan.

– Bolajonlar bu hikmatli so'zni bobomiz Mirzakalon Ismoiliy yozganlar. Hikmat nima haqida ekan?

– Vatan haqida.

– Biz Vatanni nima uchun saqlashimiz kerak?

– Unda tug'ilib o'sganimiz uchun.

– Vatan qanday makon?

– Bizga yorug' dunyoni ko'rsatgan, bepoyon, ko'rkam, boylik-larga kon, serquyosh, sahovatli zamin.

Bugungi mashg'ulotimizni “Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan” mavzusida o'tkazamiz.

## II. Mashg'ulot mavzusining bayoni

Vatan. Har kishining tug'ulub o'sgan shahar, qishloq va mamlakatini shu insonining vatani deyiladi. Vatan dunyodagi eng buyuk, eng muqaddas ne'mat bo'lgani uchun uning muqaddasligi ham shu qadar e'zozlidir. Biz ona diyorimiz farzandimiz. Shuning uchun yurtimiz mustaqilligi bergen beqiyos imkoniyatlardan har kuni, har lahzada bahramand bo'lamiz. Bu imkoniyatlarga shunchalik o'rganib qolganmizki go'yo ular necha o'n yillar oldin ham bo'lgan-u bundan keyin ham o'n yuz yillar davomida o'z-o'zicha mavjud bo'ladigandek tuyuladi. Holbuki, bugun siz bilan biz foydalanayotgan imkoniyatlar-obod məktəb, yorug' sinf xonaları, yangi daftар-kitoblar, komputerlar, musaffo osmon, tinch-osuda hayot o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. Mustaqillik yillari erishgan bu yutuqlarimiz, imkoniyatlarimiz otabobolarimiz uchun ushalmas orzu bo'lib tuyular edi. Avvallari o'lkamizning boyliklari, xalqimizning mehnati natijalariga boshqalar egalik qilar edilar. Mustaqillik bularning barchasiga barham berib, xalqimizga nisbatan adolatni tikladi. Shu bois ham Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug' eng aziz ayyomdir.

## VATAN

Dil porasi, ko'z qorasini sen o'zingdirsani,  
Mening ko'nglim sen aslida sen ko'zimdirsan,  
Tomirimda tomir yoygan ilk so'zimdirsan,  
Ilk og'rig'im, ilk yomg'irim,  
Naysonim, Vatan.

Qir ustida yonboshlagan bobom chaylasni,  
Bu dunyoda kimlarningdir orzu-havasi.  
Dimog'imda yulduz isi, shabnamalar isi,  
Momom ekip ketgan kashnich,  
Rayhonim, Vatan.

Valiylardan ibrat so'ylar juldur sahrolar,  
So'ndi qancha sultanatlar, qancha tug'rola,  
Maqbaralar aytsin lekin, aytsin Zuhrolar,  
Er ostidan suhabat aylar hanuz Kubrolar,  
Termiziylar bedor yotgan  
Qo'rg'onim, Vatan

Ne tong edi izg'irinlar zahrini totding,  
Dasturxonda muzlab qoldi qandu novvoting,  
Shahidlarning munqlaridir har bir raboting,  
Abadiy yod erur asli adabiyoting,  
Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy ham  
Usmonim, Vatan.

Men dunyoni ne deb aytay? Bu bir ko'hna bog',  
O'z bilganin saytar bunda har qumi, har zog'.  
Aslo sening bag'irlaring ko'rmayin men dog',  
Yulduzlarga osmon bo'lgan ey nurli tuproq,  
Osmonlari yelu, yeri  
Osmonim, Vatan.

So'qmog'ingda men bir epkin u bir nasimman,  
Yaproq'ing sening xas bo'lsam gar, sening xasingman.  
Jayronlaring ko'zlarida qolar so'zingman,  
Mening borim sen bilandir, yo'gim sen bilan,  
Katta yo'lga chiqqan ulug'  
Karvonim, Vatan.

### Sirojiddin Sayyid

Biz o'zimiz nafas olib turgan, inson hayotining asosi bo'lgan toza havoning naqadar bebahो ne'mat ekani haqida doim ham o'ylab ko'rmaymiz. Vaholanki, shunday bir tajriba o'tkazilsa-yu, odamlarga, ertadan boshlab havo kamayadi, degan xabar tarqatilsa bormi, biz darhol havosiz biror daqiqa, biror soniya ham yashay olmasligimizni o'ylab qolamiz. Xuddi shu singari, Vatanning qadrini ham, uning mustaqilligi tufayli yuzaga kelgan imkoniyatlarni ham uning bag'rida o'ynab-kulib, ne'matlaridan bahramand bo'lib yurgan kezlariningizda to'liq anglamasligimiz mumkin. Qachonki, o'tmishda yoki bugungi kunda yon-atrofimizdagi ayrim mamlakatlarda odamlar, bolalar,

keksalar oddiy sharoitning yoqligidan qanday qiynalishini tasavvur eta olsakkina o'zimizdagи mavjud imkoniyatlarning qadrini anglab yetamiz. Mustaqillikka erishganimizdan keyin O'zbekistonda ta'lrim sohasida juda katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda bizning mamlakatimizda 12 yillik majburiy ta'lim joriy etilgan. Bu-har bir bola 12 yil davomida, ya'nı zamonaviy bilim va aniq bir kasb sohasini egallay olguncha davlat e'tiborida bo'ladi, deganidir. Shu birlina misolning o'ziyoq yurtimizda mustaqillik tufayli qanday buyuk imkoniyatlar paydo bo'lganini ko'rsatadi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, biz mustaqil hayat qadrini chin dildan anglab yashashimiz kerak. To'maris, Shiroq, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Mangu-berdi, Amir Temur kabi ajdodlarimizga kuch-qudrat bergen tuyg'u ham ona yurtga sadoqat, uning mustaqilligini eng ulug' ne'mat deb bilish edi. Prezident Islom Karimovni xalqimizga ozod va erkin hayat sari boshlashga da'vat etgan, yurtimizni dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga olib chiqishga undayotgan kuch ham avvalo ana shunday buyuk tuyg'ulardir. Aziz o'quvchi, siz inson uchun g'oyat muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan bir haqiqatni hamisha yodda saqlashingizni istardik. Qalbimizni, iyomon-e'tiqodimizni pok tuting, beg' ubor tuyg'ularimizni hamisha asrabavaylang, ularni o'zingizni anglashga xizmat qildiring, yaxshilarga yaxshi, yomonlarga esa murosasiz bo'ling. Vatanimizga, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qiling. Har qanday sharoitda, hatto boshingizdan zar sochib yo'ldan urmoqchi bo'lganlarida ham, omadingiz kelgan yoki kelmagan kunlarda ham, yaxshi yoki yomon yashagan damlarda ham Vatanga xiyonat qilmang. Vatandan, Onadan arazlashi, unga achchiq qilish, unga qo'l ko'tarish mumkin emasligini butun qalbingiz, ong-u shuuringiz bilan anglab oling. Shuni unutmagki, dunyoda ko'p qusur-u gunohlar kechirilishi mumkin, ammo ota-onaga, yor-u do'slarga, Vatanga xiyonat also kechirilmaydi.

### **III Mashg'ulotni mavzusini mustahkamlash**

- Vatan haqida maqollar bilasizmi?
- Bulbul chamanni sevar, Odam-Vatanni;
- Vatan-ostonadan boshlanadi.

- Vataning tinch-sen tinch.
- Vatan deganda qayerni tushunasiz?
- Tug'ilgan, o'sib ungan makonni, uyimizni.
- Vatanimizda qanday diqqatga sazovor joylar bor?

—

- O'z vataningiz haqida hikoya qiling.

O'zbekiston – mening Vatanim. Biz O'zbekiston nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan go'zal vatanda yashaymiz. Vatanimiz keng va bepoyon. Unda yam-yashil vodiylar, baland tog'lar, daryo va ko'llar bor. O'zbekistonda Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent singari butun dunyoga mashhur bo'lgan shaharlar bor. Shahar va qishloqlari tobora obod bo'lib ko'rkmashmoqda. Uning poytaxti Toshkentda hashamatli va ko'p qavatlari binolar "Istiqlol", "Anjimanlar saroyi", "Turkiston" saroylari; "Temuriylar tarixi davlat muzeyi", "Olimpiya shon-shuhrati" "O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi", "O'zbekiston Davlat San'at muzeyi", "Qatag'on qurbanlari" me'moriy majmuasi va muzeyi kabi muzcylar, Alisher Navoiy nomli Milliy kutubxona, teatr va kinoteatrlar, stadionlar, go'zal xiyobon va saylgochlari bor. Hammayoq chiroyli qilib ko'kalamzorlashtirilgan. Yuzlab favvoralardan zilol suvlar otilib turadi. Ular shaharning husniga husn qo'shamiz. Toshkentda bolalar uchun juda chiroyli qo'g'ichoq teatri qurilgan. Unda turli tomoshalar ko'rsatiladi. Toshkent Davlat sirkasi ham katta-kichik tomoshabinlarga turli attraksionlar ko'rsatadi. Yana Milliy bog'u shahar ko'rkiга ko'rк qo'shib turadi. Bu yerda bayram tomoshalari va sayllari o'tkaziladi. Juda ko'p maktab, kollej, litsey, oliy o'quv yurtlarida yoshlar ta'lif oladilar. Men mahallada yashayman, mahallamiz obod va ko'rkm. Mahallada fuqarolarning sog'lig'ini tiklashga yordam beradigan poliklinika, nonvoxonalar, oziq-ovqat do'konlari, chiroyli ko'chalar, maktab va maktabgacha ta'lif muasasasi bor. Biz har kuni ko'chamizni supurib tozalaymiz va shu bilan shahrimizning ozodaligiga o'z hissamizni qo'shamiz.


## “CHARXPALAK” texnologiyasi

Tr	Obidalar	Toshkent	Buxoro	Samarqand	Xiva
1	Kalta minor				
2	Mustaqillik va czgulik monumenti				
3	Labi hovuz				
4	Minorai kalon				
5	Buxoro arki				
6	Hazrati Imom				
7	Bibihonim maqbarasi				
8	Ulug'bek rasadxonasi				
9	Baxtiyor ona haykali				
10	Ko'kaldosh madrasasi				
11	“Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui				
12	Vatanga qasamyod haykali				
13	Registon				

### IV Mashg'ulot mavzusini yakunlash

Demak, bolajonlar! Hamisha biz Vatanimizga munosib vorislar bo'lishga intilmog' imiz kerak. Yaxshi o'qishimiz va insonlarga foyda keltirishimiz kerak ekan. **“Vatan yagonadir Vatan bittadir”** degan maqolga amal qilishimiz kerak ekan. Mustaqillikning qadriga yetaylik.

Mashg'ulotimiz o'z nihoyasiga yetdi.



## **Mashg'ulot ishlanmasi**

**Sana:**

**Sinf: 3-“A”**

**Mavzu: “Mehnat-mehnatning tagi rohat”**

**Maqsad:**

**a) tarbiyaviy:** O'quvchilarga o'zgalar mehnatini qadrishga va o'z mehnatini ham qadriga yetish kabi yaxshi fazilatlarni ongiga singdirish;

**b) rivojlantiruvchi:** O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, lug'at boyligini, mehnatga bo'lgan muhabbatini shakllantirish.

**Mashg'ulot metodi:** Suhbat, tushuntirish, namuna, ko'rsatish, hikoya, rag'batlantirish, o'yin.

**Mashg'ulot jahozi:** Mavzuga oid turli xil rangli ko'rgazmali qurollar.

**O'tkazish joyi:** Sinf xonasi.

## **Mashg'ulotning borishi.**

### **I. Tashkiliy qism**

- a) salomlashish;
- b) o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorlash;
- d) ma'naviyat daqiqasi o'tkazish.

Umrni zoye etma, mehnat qil,  
Mehnatni saodatning kaliti bil.

- Bolajonlar bu hikmatli so'zni bobomiz Alisher Navoiy bobomiz yozganlar sharhlaymiz.
- Vaqtini bekorchi narsalarga sarflamasdan mehnat qilishga o'rgan, albatta mehnat insonni yaxshilikka elitadi.

Kelinglar, bugungi mashg'ulotimizni “Mehnat – mehnatning tagi rohat” mavzusida o'tkazamiz.

## **II. Mashg'ulot mavzusining bayoni**

Farzandlar ilm olib, olamni tanishlari lozimligi, haqiqatni anglash va tafakkur qilish uchun mehnatning naqadar zarurligi allomalar tomonidan hamisha ta'kidlab kelingan. Payg'ambarimiz o'z

ummattarini ilm olish va mehnat qilishga da'vat qilganlar, mehnat qilishga harakat qilish har bir mo'min va mo'mina uchun farz ekanligi qayta-qayta muqaddas kitoblarda c'tirof etilgan. Mehnat qilish bilan bir qatorda farzandlar kasb-hunar ham egallashlari uning vositasida oilalarini halollik yo'li bilan boqishlari shart. Payg'ambarlarning ham halol kasb bilan shug'ullanganliklari tarixdan ma'lum. Masalan: payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom cho'pon va savdogar bo'l-ganlar. Dovud alayhissalom temirchilik qilganlar. Iso alayhissalom tabiblik bilan shug'ullanganlar. Ajdodlarimiz o'z hunarlarini, san'atlarini kelgusi avlodlarga to'la-to'kis yetkazish, ularni o'tmishimiz madaniyati-yu san'ati bilan oshno qilish uchun nechog'lik mehr, ixlos, katta g'ayrat, shijoat bilan, ko'z nurini, qalb qo'rini sarflab, tinimsiz mehnat qilganlarining guvohi bo'lamiz. Ayni paytda bilamizki bizlar ko'rgan bilgan san'atkorlik, buniyodkorlik mahsullari o'z zamonasida yaratilgan asarlarining daryodan bir tomchisi xolos. Chunki, sobiq sho'ro davriga kelib hunarmandchilikning qadriyati keskin kamayib ketganidan bobolardan qolgan boyliklar ham talon-taroj qilib yuborilgan. Mana vaqt kelib, yana ota-bobolarimizdan qolgan hunarmandchilik san'atiga keng yo'l ochildi. Endilikda yoshlarimiz katta qiziqish, zo'r ishtiyoy bilan ajdodlarimiz ishini davom ettirishmoqda.

Qo'lida hunari bor o'lmaydi, uning nomi ham o'chmaydi, birovga xor-zor ham bo'lmaydi. El, nazdida doim ul kishi aziz bo'ladi. Hunarning umri boqiy, u o'lmas – unitilmas mo'jizadir. Hayot davom etar ekan, avlodlar ketidan avlodlar dunyoga kelar ekan, yuqorida zikr etganimizdek noyob buyumlar turmush ehitiyoji uchun doimo kerak bo'lishi tabiiydir. Keksa hunarmandlarning hikoya qilishlaricha, usta qancha qattiqqo'l, talabchan bo'lsa, shogird kasbini shuncha tez va puxta egallan ekan. Buyurilgan ish ko'ngildagidek bajarilib, shogird egallagan hunar sohasida oqsoqollar imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng uning usta bo'lishiga berilarkan.

Mehnat va kasb tarbiyasi quyidagi vazifalarga bo'linadi:

Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ijodiy va mas'uliyatli munosabatini tarbiyalash. Bundan maqsad:

- o'quvchi – yoshlarda mehnatga, mehnat ahliga hurmat, ijodiy mehnatga muhabbat his-tuyg'ularini shakllantirish;
- o'quvchilarda umummehnat zaruriyatni va ehtiyojini tarbiyalash va rivojlantirish; o'quv va ijtimoiy – foydali mehnat jarayonida barqaror mehnat e'tiqodini shakllantirish va umumxalq mehnat mahsulini yaratishga o'rgatish;
- mehnat ko'nikmalarini shakllantirish aqliy mehnat madaniyati malakalari, ijtimoiy faol mehnatni rivojlantirish;

Bolajonlar! Inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiradigan, boylik, farovonlik baxsh etadigan yagona narsa bu mehnatdir. Insonning bosib o'tgan uzundan-uzoq yo'li mehnat jarayonidan iboratdir. Inson o'zining jamiki boyliklarini mehnat, faqat mehnat tufayli yaratadi. Shu boisdan kishilar mehnatini qadrlaydilar, ulug'laydilar, farzandlarini mehnatsevar qilib tarbiyalashga harakat qiladilar. Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflagan vaqt, aqliy va jismoniy kuchi yoki zaruriy faoliyatidir. Mehnatsiz yashamoq mumkin emas. Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib ulkan hayvonlar – tuya, fil va vahshiy hayvonlar, arslonu yo'lbarslargacha ovqat yemay yashay olmaydi. Xuddi shuningdek, odamlar ham ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq odamlar kiyinshadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, kitob o'qishadi, televizor ko'rishadi. Bularni amalga oshirish uchun esa boylik, ya'ni pul kerak. Pul topish uchun, o'zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari kerak. Mehnat jarayonidagina oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zaruriy narsalar yaratiladi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'ligini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va kelajagini yaratadilar.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlarini sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan oltin xazina-ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari, me'morchilik obidalari va boshqalar ana shu mehnatning mahsulidir. Jahon fanining bayroq dorlari bo'lishgan Ismoil Buxoriy (hadis ilmi), al-Xorazmiy (matematika), Ibn Sino (tibbyot), A.Temur (buyuk

sarkarda), Ulug'bek (falakiyot), A.Navoiy (til, adabiyot) Bobur (adabiyot) singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan va yoshlami ham mehnatni sevishga, mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan. Shu boisdan jahondagi barcha xalqlarning maqollarida bo'lgani kabi o'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rnlardan birini egallydi. "Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz – rohat". "Mehnat qilsang, yasharsan, katta-katta osharsan". "Oltin o'tda toblanan, odam – mehnatda". "Mehnat bilan qarisang, rohat bilan yasharsan". "Uzoq umr siri mehnatda". Ishlamasak har doim lanjlikni keltirib chiqaradi, lanjlikdan keyin esa nogironlik keladi.

Mehnat barcha xastaliklardan xalos etuvchi shisobaxsh malham. Bekorchilik va aysh-ishrat esa nafaqat nodonlikka olib keladi, ayni vaqtida kasallikning tug'ilishiga ham sababchi bo'ladi Biz hamisha mehnat qilishimiz kerak. Shunda biz o'zimizga va barcha insonlarga foya keltiramiz. Masalan, bahorda mehnat qilib ko'chatlar o'tkazamiz, gullar ekamiz, bog'larni tozalaymiz. Undan keyin esa mevali daraxtlar meva solganida mazza qilib mevalaridan iste'mol qilamiz. Gullar esa tabiatimiz chiroyiga o'z hissasini qo'shib, tabiatni yanada ko'r kamlashitiradi. Xalqimizda bir maqol bor "Mehnat baxt keltiradi" mehnat hamisha bizga baxt keltiradi.

Shunday bolalar borki, ular bog'lardagi mevali daraxtlarni shoxlarini sindirib tashlaydilar? -Shu yaxshi ishmi?

– Sizlar shunaqa bezorlikka qanday qaraysiz? Bu ishlar yaxshi emas. Axir bog'bonlar bog'da tinmay mehnat qiladilar, kim uchun? Albatta bizlar uchun, shuning uchun ularning mehnatlarini qadrlashimiz yani qadriga yetib, shunchalik bizga foya keltirayotganlari uchun ulardan cheksiz minnatdor bo'lishimiz shart. Agar ularning mehnatini qadrlasak, o'zimizning ham mehnatimizning ham qadriga yetamiz.

– Bolajonlar, yana shuni aytib o'tish kerakki mehnat ikki turga bo'linadi: 1. Aqliy mehnat, 2. Jismoniy mehnat.

Aqliy mehnatga bizni o'qishimiz, yozishimiz ishlashimiz kirsa, Jismoniy mehnatga esa kattalarga uy ishlarida yordam berishimiz, yer chopishimiz, ko'chat ekishimiz, supurishimiz va shu kabilar kiradi.

### **III. Mashg'ulotni mavzusini mustahkamlash**

Qana bolajonlar mehnat haqida qanday maqolllar bilasiz? Po'lat o'tda bilinar odam mehnatda; Hunari yo'qning unari yo'q; Mehnat-mehnatning tagi rohat; Mehnat qilgan elda aziz;

– Barakalla bolajonlar!

Ota-onangizning kasbi?

Sizning oilangizda mehnat taqsimoti qanday yo'lga qo'yilgan?

Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

– Bolajonlar, mehnat haqida topishmoq aytamiz.

Bir saf uning tishlari,

Kesish, bo'lish ishlari.

O'tin yorar erta-kech,

O'zi yorilmaydi hech.

Baland temir uy yurar,

Burni tog'larni surar.

– Barakalla bolajonlar juda ham topqir ekansiz!

– Bolajonlar kelinglar endi mana bu hikmatli so'zlarda tushurib qoldirilgan so'zlarni to'g'irlab qo'yib o'qiyimiz.

“Xazina g'oyibdan emas, ..... keladi.

Mehnat qilib topganing – qand-u asal .....

Yoshlikdagi ..... qarilikda davlat keltiradi.

### **IV. Mashg'ulot mavzusini yakunlash**

Demak, bolajonlar! Hamisha biz mehnat qilishimiz va inson-larga foya foyda keltirishimiz kerak ekan. “Osmon yomg'iri bilan, inson mehnati bilan go'zal” degan maqolga amal qilishimiz kerak ekan. Boshqa insonlarni va o'zimizni mehnatimizni qadriga yetaylik. Mashg'ulotimiz o'z nihoyasiga yetdi.

## **MAKTABDA TARBIYAVIY ISHLAR TIZIMIDA SINF RAHBARINING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH METODIKASI**

Reja:

1. Tarbiyaviy ishlar tizimida sınıf rahbari faoliyatining o'rni.
2. Sinf rahbari ish faoliyatining maqsad va vazifasi.
3. Sinf rahbari ish faoliyatiga qo'yiladigan pedagogik talablar.

Sinf rahbarining o'quvchilarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'p jihatdan uning ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongi va xulq-atvorning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab hayotida, talim-tarbiya jarayonini boshqarishda sınıf rahbarining o'ziga xos o'rini bor. U maktabda juda muhim va mas'uliyatli vazifani bajaradi. Sinf rahbari faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir.

Sinf rahbari deganda – o'quvchilarni bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilmis jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog (sinf rahbari) tushuniladi.

Sinf rahbarining asosiy maqsadi, o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sınıf rahbari bilan bir-birini tushuna olish va sınıf rahbari tomonidan o'quvchilarga e'tiborliroq bo'lishdir. Boshlang'ich sınıf maktab ta'limining dastlabki bosqichi bo'lib, unda bolalar o'qituvchi rahbarligida birinchi qadam qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'qituvchi sınıf bilan yolg'iz ishlaydi va ko'pincha tarbiyachi sifatida ish yuritadi. O'qituvchilik faoliyati bolalarga munosabatda, katta mehribonligi bilan g'amho'rligi bilan xarakterlanadi. Bular esa katta talabchanlik bilan olib boriladi. O'quvchilar bilan olib boriladiga o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchilarning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni tarbiyalash sınıf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik talablar berishga erishadi, ota-onalar, kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari jamoatchilik bilan doimo aloqa bog'lab turadi. Sinf jamosini tashkil etishda sınıf rahbarining o'rni katta hisoblanadi. Sinf rahbari sınıf

jamoasini jipslashtirishda ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Hamkorlik shakllaridan biri sinf ota-onalar majlisi o'tkazishdir. Sinf majlisi o'tkazish uchun, avvalo, jamoani jipslashtirish zarur. Sinf rahbari majlisda ko'plab bolalar tarbiyasiga oid masalalarni ko'radi. Sinf majlisida 3-4 ta masalalar ko'rilib, muammoli tomonlar tahlil qilinadi va o'z yechimini topishi kerak bo'ladi.

Sinf rahbari majlis o'tkazish davomida yaxshi o'qiydigan bolalarni sinfda, yangi jamoa ichida rag'batlantirishi kerak. Bunda bolalar bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishadi. Shuning uchun ular bir-biriga intilib, yaxshi o'qishga harakat qiladi. Yomon o'qiydigan bolalar yaxshi o'qiydigan bolalarga intilib ular ham yaxshi o'qishga kirishadi. Bundan tashqari sinf rahbari o'quvchilarning bilim darajasini oshirish uchun o'z sinfida kutubxona tashkil qilishi mumkin. Bu kutubxonadagi kitoblarni o'quvchilar sinfdan tashqari o'qish vaqtida yoki darsdan so'ng bo'sh qolgan paytlarida, o'qib o'zlariga foydali tomonlarini olishi mumkin. Bizning yosh avlod xalqimizning inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarini o'zlashtirib o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini g'oyaviy e'tiqod va matonatini, Vatanga muhabbatini, uning iqtisodiy-siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intiladi.

Sinf rahbari har doim o'quvchilardan xabardor bo'lib turishi kerak. Masalan, bir o'quvchining o'zlashtirishi yomon bo'lsa, uni yaxshilash uchun o'qituvchi birinchi o'rinda ota-onasi bilan uchrashib, surishtirishi lozim. Nimaga yaxshi o'qimaydi, nima uchun darslarni o'z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borishi kerak. Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo'lib bola o'zi yaxshi o'qishni xohlasada, o'zi o'yagan natijaga erisha olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi bolani yaxshi o'qiydigan o'rtog'inинг yoniga o'tkazib qo'yish kerak. Bundan tashqari shunga o'xshagan o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yig'ib, har xil fanlardan masalan, matematika, ona tili, o'qish va boshqalardan qo'shimcha darslarni tashkil etib, bolalarni o'qishga bo'lgan talablarni, qiziqishini yanada oshirishga o'qituvchi harakat qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan faol ishlashi zarur. Negaki, mакtabda sinfda bo'layotgan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiynalgan

vaqtida hamroh bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalar bilan o'qituvchining o'rtasida bog'lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

### Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalgaga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz emas, shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilar bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'ligini mustahkamlashga ham e'tabor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning yuqori darajada o'zlashtirishini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyiştiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltiradi, ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini ta'min etadi, mакtab miqyosida uyiştirilayotgan muhim tadbirda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, o'quv kuni uzaytirilgan guruhlarning tarbiyachilar, korxona va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqua oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatishga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktah o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarni: sinf jurnali, o'quvchining kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi. Ko'rinish turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarinig shaxsiy sifatlariga ham

bog'liqdir. Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ichonchiga va e'tiqod darajadiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam o'zlashtirib borishi bilan o'zining bilimini oshiradi. Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki, tarbiyachi qobiliyati juda ko'p sifatlari: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomala nazokatligi, oqil va adolatlilik namunasi, sopolik va vazminlik kabi fazilatlarning bo'lishi taqozo qilinadi.

Topshiriq: Maktabda sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ish rejasini ko'rib chiqish va tahlil qilish.

## SINF RAHBARINING MA'NAVIY-MA'ARIFIY ISHLARI

Reja:

1. Sinf tarbiyaviy soatlari haqida umumiy tushuncha.
2. Sinf tarbiyaviy soatlарини ташкіл етish metodlari.
3. Sinf tarbiyaviy soatlарини uyushtirish.

Sinf tarbiyaviy soatlari maktab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakllaridandir. Sinf tarbiyaviy soatlari quyidagi: ma'rifiy, baholovchi, yo'naltiruvchi singari uch asosiy tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Ma'rifiy tarkibiy qismda: o'quv dasturlaridan tashqari, o'quvchilarning etik, estetik, ruhiy tushunchalarni, fan-texnika, xalq xo'jaligi, dunyo voqealarini boyitib, kengaytirib borishdan iborat ishlar amalga oshiriladi.

Baholovchi tarkibiy qismda: o'quvchilarda atrof-muhitga muayyan munosabatda bo'lish, undagi moddiy va ma'naviy boyliklari-mizning bahosi, ahamiyati va qadr-qimmati, mehnat kishilari va Vatanimiz himoyachilarining shon-shuhrati, ona Vatanimizning, ulug' xalqimizning shuhrati haqidagi tegishli tushunchalarni hosil qilish va

imustahkam qaror toptirishdan iborat sifatlar ro'yobga chiqariladi. Yo'naltiruvchi tarkibiy qismda: o'quvchilarining mavjud hayot haqidagi bilim va tushunchalari to'g'ri, maqsadga muvofiq yo'naltirilib, teranlashtirilib, ularning hayotiy tajribasi, axloqi, bo'lg'usi turmush yo'lini to'g'ri tanlashdek hayotiy faoliyatları, unda tutgan mavqelari faollashtirilib, boshqarilib boriladi. O'qituvchi-tarbiyachi tarbiyaviy soatning mavzuini belgilab, unga tegishli material to'playotganda o'quvchilarining yosh va o'ziga xos xususiyatlarini, sinfning rivojlanganlik va tarbiyalanganlik darajasini, mahalliy shart-sharoitni albatta e'tiborga olishi kerak. Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy shakkidan biri sinf tarbiyaviy soatlari bo'lib uni tashkil etish pedagogning quyidagi yo'nalishlar asosida olib boriladigan ishlardan iborat:

- a) sinf tarbiyaviy soatlarning mazmunini aniqlash;
- b) tashkiliy jihozlash ishlari;
- v) sinf tarbiyaviy soatlari turkumini rejalashtirish.

O'sib kelayotgan yosh avlodga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishda sinf tarbiyaviy soatlari ish mazmunini aniqlash va rejalashtirish mavzularni fasllarga qarab, bayram, tarixiy sana hamda voqealar, tinchlik, do'stlik, mehnat, oila, baxt, kasb tanlash, tabiatni sevish, vatanparvarlik, ajodolarimiz merosi, insoniylik, axloqiylik singari tarbiyaviy muammolar asosida tasniflash katta muvaffaqiyatning garovi ekanligini ko'rsatmoqda.

"Inson va insoniy munosabatlar". Bunda jamiyatimizdagi insoniy munosabatlar, jonajon maktabi, o'qituvchilar o'z ota-onasi qarindosh-urug'i, do'stlari va boshqa kishilarga, jamoat mulkiga, ona Vatan boyliklariga munosabat, yurish-turish madaniyati, muomalasi, rostg'o'ylik, halollik, mehnatga ongli munosabatda bo'lisch. "Fan va turmush". Bunda moddiy olam haqidagi haqiqatni, qarashlarni shakllantirish, fan texnika yangiliklari, bilim manbayi bo'lgan kitobga munosabat, uni o'qish qoidasi, turmush, madaniyat, bugungi kun turmush tarzi kabi masalalarga e'tibor berish.

"Go'zallik olamida". Bunda go'zallikning mohiyati, go'zallikni his qilish, nafosat va etika tushunchalari; hayotda insonning kiyinishda, turmushda, mehnatda, axloqda, muomala va nutq madaniyatida,

kuy va qo'shiqlarda, she'riyatda, raqs va tasviriy san'atda, haykaltaroshlik va me'morchilikda, zamonaviy ishlab chiqarish kabi sohalarda go'zallik tushunchalariga e'tibor berishi.

"Davlat mustaqilligi va inson huquqi haqida nimalarni bilasiz?" Bunda davlat mustaqilligi, uning ma'nesi va mohiyati, mustaqil davlat siyosati va iqtisodiyotining mazmuni, tashqi dunyo mamlakatlari bilan do'stona aloqalar, elchixonalar vujudga keltirish, milliy mustaqillik imkoniyatlari, vatandoshlar bilan ishbilarmonlik doirasida aloqalar o'matish, dunyo siyosiy voqealariga, huquq darajalari, o'z haqi va huquqi uchun kurash, ona Vatannimizga, xalqimizga mehr-muhabbat, sadoqat, e'tiqod, dunyoviy g'alabalarimizga munosabat kabilarga e'tibor berish.

"Sog' tanda – sog'lom aql". Bunda o'quvchining kundalik faoliyat tartibi, uyida o'quvchining o'z burchagi bo'lishi, yosh va o'ziga xos xususiyatlariga qarab gigiyenik qoidalarga rioya qilish, jinsiy tarbiya, gigiyenik qoidalarga rioya qilish, gigiyena – inson go'zalligi, madaniyati va salomatligi garovi ekanligi kabilarga e'tibor berish.

"Ruhiyat mavzulari"da bo'lajak ota-onalar, ijodkorlar, tashabbuskorlar, qahramonlar, bo'lg'usi jamiyatning faol quruvchilari tarbiyalanayotganligiga, xotira, fikrlash, erkinlik, xohish, istak, kayfiyat, qobiliyat, talant, vijdon, burch, o'rtoqlik, fuqarolik his-tuyg'ulari, bo'lajak kasbga ma'naviy jihatdan o'zini tayyorlab borish kabi ma'naviy tushunchalarni singdirish va o'z-o'zini tarbiyalash kabilarga e'tibor berish.

"Ekologik tarbiya"da bolalarda tabiatning yer osti va yer usti boyliklariga, tabiatga nisbatan javobgarlik, Ularni hozirgi va kelajak avlod uchun avaylab asrash, ko'paytirish hamda muhofaza qilish his-tuyg'ularini, tushunchalarini tarkib toptirish kabilarga e'tibor berish lozim.

Sinf tarbiyaviy soatlarini tashkil qilish unga o'quvchilarni ruhan tayyorgarlikdan boshlanadi, ular sinf tarbiyaviy soatlarini intizorlik bilan kutishlariga harakat qilish lozim. Ko'rildigan masalalar nechog'li muhokama va munozarabop bo'lishi hamda u ko'ngildagidek o'tkazilishi darkor. Avvalo muhokama qilinadigan mavzu, uning mazmuni, uni o'tkazish vaqtiga, tartibi va ushbu mavzuga oid materiallarni topish lozim. Tarbiyaviy soatlar uchun məktəb o'quvchilari va o'qitivchi-tarbiyachilarga mo'ljallangan hamda ommabop gazeta va jurnallar, pedagogikaga oid va bolalar tarbiyasiga doir badiiy adabiyot namunalari,

kinolavha, kinofilm, diafilm va radio eshittirish va teleko'rsatuvlardan, tarbiya mavzusiga yo'naltirilgan va shu kungi o'quvchilar uchun dolbzarb, hayotiy materiallardan tanlab olishlari kerak. Shundagina sinf o'quvchilarining qaynoq ijodiy faoliyati ta'minlangan bo'ladi. Bunday vaqlarda o'quv-teknika vositalari, ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallardan unumli foydalanish esa so'zsiz sinf tarbiyaviy soatlarni yanada ijobjiy natijalarga olib keladi. Sinf tarbiyaviy soati tarbiyaviy ishning ajralmas qismi bo'lib o'quvchilar uchun ham, sinf rabbari uchun ham amaliy-ijodiy ishdir. Sinf tarbiyaviy soatlarda tanlangan mavzu bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarga eng avvalo o'qituvchi puxta tayyorgarlik ko'rishi lozim. Mashg'ulot jarayonida ustoz o'z maqsadini o'quvchilari ongiga yetkaza oladigan, ularning qalbini to'lqinlantira oladigan, ta'sirchan va ifodali bayon qila oladigan nutqqa ega bo'lishi, turli pedagogik ta'sirlar orqali singdira oladigan bo'lishi lozim. Sinf tarbiyaviy soatlari uchun tanlangan mavzuning maqsadiga mos keladigan kuy va qo'shiqning yangrashi, badiiy o'qish, she'rxonlik, o'z ijodiy ishlaridan namunalar ko'rsatish, muhokama qilinayotgan masalaga nisbatan o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini bayon qilashlariga keng yo'l berish, hayotiy muhim masalalar haqida aniq va to'g'ri xulosalar chiqarishlariga yo'naltirib borish lozim. Bu esa o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil va erkin bayon qilishga odatlantirib, ularda faollikni kuchaytiradi.

### Sinf tarbiyaviy soatlari uchun namunaviy mavzular ro'yhati.

#### 1-sinf

Mustaqil Vatan.

Jonajon mifiktabim.

Yaxshi bola.

Oilamiz o'zi bir dunyo.

Chin so'zim.

Mening do'stlarim kimlar.

Mehnat – mehnatning tagi rohat.

Men kim bo'lsam ekan?

Bir burda non qadri.

Oq paxta oppoq paxta.  
Biz tabiatni sevamiz.  
Fasllar nima deydi?  
Meniki va bizniki.  
Maktab mulki – mening mulkim.  
Quyosh, havo – tanga davo.  
Sog' yuray desang, ozoda bo'l.  
Inson nima uchun o'qiydi.  
Bobolar merosi beba ho boylik.  
Ona ulug' zot.  
Otam bilan faxrlanaman.  
Oilada yoshi kattalarga qanday muomalada bo'lish kerak.  
Kattaga hurmatda kichikka izzatda bo'l.  
Boshingga qilich kelsa-da, rost so'zla. Uvol degani nima?

## 2-sinf

Bizning oila.  
Ota-onha bolaning baxt chirog'i.  
Inson odobi bilan.  
Biz kimlardan o'rnak olamiz.  
Rostgo'y bola.  
O'zbekiston Respublikasining gerbi, madhiyasi va bayrog'i.  
Xalol va harom.  
Odobli bola elga manzur.  
Bolalar huquqlari.  
O'quvchining burch va vazifalari.  
A. Temur o'gitlaridan namunalar.  
Qushlarni avaylab asrash burchimiz.  
A. Navoiy Vatan va vatanparvarlik haqida.  
Dasturxon atrofida o'zingizni qanday tutasiz.  
Vatanparvarlik – muqaddas burch.  
Salomlashish odobi.  
Non – beba ho boylik.  
Jonajon maktabim – mening.  
Egri va to'g'ri.  
Onajonim siz mening.

Qanday o'quvchini yaxshi bola deyishadi?  
Qomusimiz – baxtimiz.  
Kimlar bilan do'st bo'lish mumkin?  
Mehr-muruvvatli bo'laylik.  
Ichimlik suvini tejash – burchimiz.

### **3-sinf**

O'zbekiston mustaqil Vatan.  
Olim bo'lsang olam seniki.  
Sening kundalik faoliyatning.  
Kitob-oftob.  
"Alifbeni o'rgatgan, to'g'ri yo'lni ko'rsatgan..."  
Ko'hna obidalar – tarix guvohi.  
Assalomu alaykum!  
Ovqatlanish odobi.  
Farzandlik burchi  
O'zbek tilim- o'z ona tilim.  
Shifokorga mehrim.  
Bugungi niyat – ertangi haqiqat.  
Dasturxon ustida suhbat.  
Inson o'z bilimi bilan samoga yo'l oladi.  
Savob nima?  
Do'stlik va o'rtoqlik.  
Kasal ko'rish va yoshi katta kishilarni ziyorat qilish odobi.  
Pardoz - andoz o'quvchiga xosmi? .  
Bobur – dilbar shaxs.  
Besh bahoning sirlari.  
Donolar bisotidan: odobnoma durdonalari.  
Oilada tejamkorlik.  
Hunarli odam xor bo'lmas.

### **4-sinf**

Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan.  
Forobiy bobomiz deydilar.  
Sog' tanda – sog'lom aql  
Jamoat joylardagi odob mezonlari.

Vatan muhabbatি  
Qayerda qanday salomlashish kerak.  
Ilm olish va hunar o'rganish haqida.  
Tabiatni asrab-avaylash – burchimiz.  
Non – aziz ne'mat.  
Ona yurtim – oltin beshik.  
O'z irodangizni tarbiyalay olasizmi.  
Ota – oila tayanchi, ona – oila quvonchi.  
Xushmuomala va muloyim so'zli bo'lish – eng yaxshi fazilat.  
O'zingiz yashab turgan mahalla tarixini bilasizmi?  
So'zlashish va nutq madaniyati.  
Birni kessang, o'nni ek.  
Sinf va maktab shuhrati uchun kurash har birimizning burchimiz.  
Donolar deydilar.  
Hayotning asosi – mehnat.  
Go'zallik olamida.  
Yaxshi tarbiya – inson ziynati.  
Namunali oila.  
Ilm kaliti – kitob.

## SINF JAMOASINI TASHKIL ETISH VA UNI TARBIYALASH METODIKASI

Reja:

1. Bolalar jamoasini tashkil etish haqida umumiy tushuncha.
2. Jamoa ishini tashkil etishda sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyatlari.

Sinf maktab jamoasining ajralmas bir kichik bo'lagidir. Sinf faqat o'quv faoliyati birligi bo'libgina qolmasdan, balki o'quvchilarga tarbiya berishni tashkil etishning muhim jamoa shakli hamdir. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini tashkil etish asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki jamoada shaxsnar tarbiyalash tarbiyaning yetakchi maqsadidir. Jamoada shaxsnar tarbiyalashning umumiy assoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni aniqlash, o'quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi

istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fiqrini shakllantirish, ijobjiy an'alarini yaratish va ko'paytirish. Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamaa (maktab, sinf jamoasi, maktabdan tashqari bolalar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma bo'lib hisoblanadi. Bolalarning jamaa turmush me'yorlari va qoidalarining intizomini buzilishiga munosabatlarini kuzatib jamaoaning tashkiliy tuzilishi ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jamaa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolalar tarqoq bo'lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo'lgan ta'sirchan faollar bo'lmaydi. Shuning uchun jamaada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi va mustaqil jamaa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamaa rivojlanishning ikkinchi bosqichida bo'lsa, nomigagina emas, balki harakatlarini qo'llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo'lsa, uning ayrim o'quvchilar va jamaa oldiga muayyan talablar qo'yishini kuzatish mumkin. Jamoaoing rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatga kirishishidir. Sinf o'quvchilar ko'p bo'lgan sharoitda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, har bir bola qalbiga to'g'ri yo'l topish qiyin. Agar o'quvchilar jamaosi qo'llab-quvvatlasa, har holda bunday yo'lni topish mumkin. Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o'quvchini jamaa faoliyatiga jalb etishdan, jamaani esa mazkur o'quvchi bilan qiziqtirib qo'yishdan iboratdir. Har qanday jamaada tarbiyasi qiyin bolalar bo'ladi, lekin ajratib qo'yilgan bolalar bo'lmaydi. O'quvchilarning xulq-atvori, o'quvchini muntazam o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymasa, uning uchun sezilmagan tarzda o'zgarishi mumkin. Bunday o'rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o'quvchilarning rivojlanishiga ta'sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo'lishi kerak. Sinf rahbari o'quvchilarni yakka tartibda va jamaa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamaosini emas, balki

o'quvchilar jamoasini tashkil etadi. O'quvchilarning assosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini darsda qanday tutishlarini, uy vazifasini sidqidildan bajarishlarini yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va niyoyat, eng muhim ularning o'qishdagi rejalari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. O'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak. Buning uchun eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish jarayonida kuzatishdan iboratdir. Buning uchun maxsusus diagnostik usullar, masalan, anketa tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish kabi usullardan foydalish mumkin. Lekin bu usullarni guruhga juda ehtiyyotkorlik bilan, katta pedagogik odob bilan qo'llash lozim. O'quvchilarni o'rganishning har bir usuli ayni vaqtida tarbiya usuli ham ekanligi o'qituvchilar uchun qonun bo'lishi kerak. Jamoada shaxsni yakka tartibda tarbiyalashda maktab o'quvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jaib etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'ysunmaydigan, tarbiyasi qiyin bolalar bu, albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas. Sinf rahbari o'quvchilar yomon xulq-atvorining, past o'zlashtirishining sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining siftdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'nnaviy asoslari eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jamoa munosabatlari – dastavval muayyan maqsadlarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar yo'naltirib turadigan o'zaro mas'uliyatli munosabatlardir. Sinf rahbaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, o'z malakasini oshirib borish bilan birga ishga ijodiy yondashish talab etiladi. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarining to'g'ri bo'lismiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtida o'zining o'rmini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning

muvaqqiyatini ta'minlashga garov bo'ldi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi.

Topshiriq: Amaliyotda o'zingiz biriktirilgan sinfda sinf rahbarining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonini kuzating va tahlil qiling.

## O'QUVCHILAR BARKAMOLLIGINI TARBIYALASHDA OMMAVIY TADBIRLARNING AHAMIYATI

Reja:

1. Ommaviy tadbirlarning inson hayotidagi ahamiyati.
2. O'zbekistondagi bayramlarning rivojlanish tarixi.

Bayramlar insoniyat hayotining tarbiyaviy qismi bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy turmushning, madaniyat, ma'naviyatning va undagi tarbiya tizimining eng muhim bo'laklaridan biridir. Bayramlarning asosiy ijtimoiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u insoniyat kurashini, mehnatini hamda boshqa ko'p soha-lardagi yutuqlarini namoyon etadi. Bayram insoniyat bosib o'tgan yo'llarning mohiyatini chuqur anglashiga, g'alabalaridan faxrlanishiga, ertangi kun uchun yaxshi rejalar tuzishiga, kelajakka katta umid bog'lashiga yordam beradi. Shuning uchun ham kishilar bayram arafasida bir-birlarini tabriklab, kelajak hayotga yaxshi tilaklar va istaklar bildirishadi. "Bayramlar - xalqning shodlik va xursandchilik kuni", – degan sharqning buyuk olimi Mahmud Koshg'ariy.

- Bayram – bu ma'lum vaqtidagi ideal hayotdir.
- Bayram – insoniyat madaniyatini rivojlantiradi, an'analarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar muhim o'rinda turadiki, ularni nishonlamaydigan xalq bo'lmasa kerak.

Bayram insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatining eng yaxshi tomonlarining ko'rsatkichi hisoblanadi. Bayramda xalqning eng diqqatga

sazovor udumlari, yutuqlari namoyon bo'ldi. Bayram – ijtimoiy, madaniy va ma'naviy yutuqlarni namoyish etuvchi, shu yutuqlar asosida tarbiyalovchi muhim vositadir. Shu boisdan, bayramlar o'quvchi – yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi o'ziga xos sehrli kuchga egadir. Inson hayotida, uning tarbiyasining shakllanishiida bayramlar katta ahamiyatga ega. Bayramlar marosimlarning rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bayram inson madaniyatining ilk shakllaridan biridir. Shuningdek, bayram inson va uning inchnati bilan birga vujudga kelgan. Qadimgi O'zbekiston hududidagi xalqlarning yil fasllariga bag'ishlangan ko'plab taqvim bayramlari bo'lganligi haqida Abu Rayhon Beruniy beba ho ma'lumotlar qoldirgan. Jumladan, xorazmliklarda yilning boshida "Nausarji", saratonda "Xaravadod", yoz o'rtaida "Chiri", "Umri" kabi bayramlarning bo'lganligi haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga Buxoroda gul ochilishi munosabati bilan o'tkaziladigan "Guli Surx", mosh pishganda tashkil qilinadigan "Moshaba" kabi yirik o'yinlar, boy bayramlar xalq o'rtaida mashhur bo'lgan. O'zbek ommaviy bayramlari rivojining sababi – ularning muhim an'analarining, ulardagi insoniy va xalqchil g'oyalarning ilgari surilishidadir. VII asrda arablar O'rta Osiyon bosib olgandan keyin bu yerda "Qurban hayit", "Ramazon hayiti", kabi bayramlar xalq hayotidan o'tin oldi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqi o'zining qadimgi qadriyatlarini yanada qadrlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maxsus Farmoniga asosan:

- “1-Sentabr – Mustaqillik kuni”;
- “1-Oktabr – Ustoz va murabbiylar kuni”;
- “8-Dekabr – Konstitutsiya kuni”;
- “8-Mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami”;
- “21-Mart – Navro'z bayrami”;
- “9-May – Xotira va qadrlash kuni”.

va ikki hayit "Ramazoni sharif", "Qurban hayiti" bayramlari qayta tiklandi. Demak, mustaqil diyorimizda bayramlar o'zining haqiqiy mohiyatini, asl mazmunini va rang-barang shakllarini namoyon etmoqda.

Bayramlarni mazmuniga ko'ra, Abu Rayhon Beruniy X-XI asrlarning o'zida ikkiga: diniy va xalq bayramlariga ajratgan.

Hozirgi kunda bayramlarni uch gururuhta ajratish mumkin:

1. An'anaviy bayramlari;
2. Milliy xalq bayramlari;
3. Taqvim bayramlari.

**"CHARXPALAK"** texnologiyasi asosida yurtimizda o'tkaziladigan ommaviy bayramlar va an'analarni o'rganish

Tr	Bayram va marosimlar	Tabiat bayrami	Meh nat bayrami	Madaniyat bayrami	Oilaviy marosimlar	Ijtimoiy siyosiy	Diniy bayram
1	Birinchi qadam marosimi						
2	Xotin – qizlar bayrami						
3	Mustaqillik kuni						
4	Badiiy sport bayrami						
5	Gul bayrami						
6	Hosil bayrami						
7	Navro'z bayrami						
8	O'zbek to'ylari						
9	Mehrjon bayrami						
10	Ism qo'yish marosimi						
11	O'qituvchi, murabbiylar kuni						
12	Ro'za va Qurbon hayitlari						
13	Yangi yil bayrami						
14	Folklor bayramlari						
15	Tug'ilgan kun, muchal yoshi						
16	Nafaqaga kuzatish marosimi						
17	Konstitutsiya bayrami						
18	Urug' qadash marosimi						
19	Sunnat to'yi						
20	Tabiatsevarlar bayrami						
21	Kumush, oltin va olmos to'y						
22	Xotira va Qadrlash kuni						
23	Birinchi gul bayrami						
24	Beshik va aqiba to'ylari						

## **Hosil bayrami.**

Bayram o'tkaziladigan joy: xona, zal, bog' bayramona bezatiladi.

Bayram boshlanishi oldidan sho'x kuy yoki qo'shiq yangrab turadi. Bayram o'tadigan joyga sekin - asta mehmonlar va bayram ishtirokchilar to'planadilar.

Musiqa sadolari ostida bayramni boshlovchilar milliy kiyimlarda sahnaga chiqib keladilar.

1-boshlovchi: To'ydan darak berar

Karnay-surnay sadosi

Yuraklarni shodlantirar

Uning nash'u namosi

2 –boshlovchi: Yurtimizga sepin yoydi

Oltin kuz fasli

Bu faslda "Hosil bayrami"

Bayramlar asli.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, mehribon ota-onalar-u, qadrli tengdoshlar.

2-boshlovchi: Xush kelibsiz davramizga, bayram dasturimizni ochiq deb e'lon qilamiz.

Raqs: Dehqonlarning sharafli mehnati haqida qo'shiq

1-boshlovchi: Jonajon O'zbekistonimizga "Oltin kuz" fasli kirib keldi. Kuz to'kinchilik, pishiqchilik fasli.

Ona zamin bag'rida, mehnatdan topdim oshim.

Mangudir, azaliydir, makonim-tog' u toshim.

Ularga tayanaman, ular suyanch-bardoshim.

Bugun Navro'zga esh to'y-hosil to'yim – Mehrjon.

2-boshlovchi:

El - ulusim bog' da tabiatdan sahovat,

Bag'ri bepayon yurtim mehnatimdan but, obod.

Olma-yu, shaftolisi, uzumi, noki-novvot

Yurtdoshlarim kelingiz, endi qo'shiqqa navbat.

Oxunjon Madaliyevning "Bobo dehqonim mening" qo'shigi yangraydi qizlar raqsga tushadi.

Hosil yig'im terimiga oid sahna 1-o'quvchi yer chopadi, 2-o'quvchi don(urug') sepadi, 3-o'quvchi parvarishlaydi, 4-o'quvchi suv quyadi, Oxirida hammasi hosilni yig'ib olib ketadilar.

**1-boshlovchi:** Darhaqiqat mustaqilligimizning 20 yilligi nishonlangan ushbu yilda hirmon va omborlarimiz g'alla-yu donga, savzavot-u mevaga liq to'ldi.

**2-boshlovchi:** Xalqimizning rizqini mo'l-ko'l qilayotgan dehqon bobolarimizga katta rahmat, bugungi bayram dehqon boboning fidokorona mchnatining natijasidir. Sahnaga dehqon bobo kirib keladi.

**Dehqon bobo:** Salom aziz bolalar,  
Tog'da o'sgan gul lolalar.  
Bayramingiz qutlug' bo'lsin,  
Nasibangiz to'liq bo'lsin.  
Hosil bayrami yoqar bizga.  
Mevalarga mchrim berib.  
Bolajonlar rahmat sizga.  
Jo'natganman sizga terib.  
Mevalardan ta'tib ko'ring,  
Darmon bo'lsin quvvat bo'lsin,  
Bizga rahmat aytib qo'ying.  
Kuchga to'ling ulardan yeb.

**1-boshlovchi:** Xush kelibsiz, dehqon bobo. Mchmon bo'ling.

**2-boshlovchi:** Dehqon bobomiz yetishtirgan mevalar, o'zlar haqida so'zlab berishmoqchi. Ularni eshitaylikchi!

#### O'quvchilar:

##### *Olma*

Men olmaman men olma,  
Vitaminga boy olma.  
Meni yegan polvon bo'lur,  
Tomirlari qonga to'lur.

##### *Nok*

Dasturxoning bezagi,  
Mevalarning keragi.  
Nok deydilar nomimni,  
Tatib ko'ring ta'mimni.

##### *Anor*

Meni anor deydilar,  
Mazza qilib yeydilar.  
Yoqut misol har donaman,  
Xurmo mening dugonamdir.

##### *Xurmo*

Mening nomim xurmodir,  
Demang ozoq xormodir.  
Meni to'yib yesangiz,  
Bo'qoq kasal bo'lmaysiz.

##### *Anjir*

Mening nomim anjirdir,  
Foydam juda ham ko'pdir.

##### *Qovun*

Qovunman shirin-sharbat,  
Qovun yeb suv ichmang faqt.

Mazza qilib yeb oling,  
Yana bormi deb qoling.

### **Tarvuz**

Ichim qizil ustim ko'k,  
Shirindirman demang po'k.  
Menga vatan ko'k dala,  
Yeb to'ysin hamma bola.

Kesildim tilim-tilim,  
Sizlarga ochdim dilim.

### **Qalampir**

Nomim mening qalampir,  
Achchiqroq mazam bordir.  
Ovqat bilan yeng kam-kam,  
Yoqaman sizlarga ham.

### **“Qovaqvay” sahna ko'rinishi:**

1-boshlovchi: Bu bolalar chaqqon ekan. Ularni biz sinab ko'raylik.  
2-boshlovchi: Qanday qilib?

1-boshlovchi: Buni o'yin tarzda o'tkazamiz. O'quvchilar ko'zlarini yumuq holda, oldidagi mevalarning nomini topishlari kerak. Qo'shiq ijro etiladi. Bir qiz chiqib: Men ham bolalarni sinab ko'rmoqchiman. Ularga topishmoqlar aytaman. ???/ Raqs. “Sho'rva” sahna ko'rinishi. O'g'li maktabdan keladi. Onasi oldiga kosada sho'rva qo'yadi. O'gli sho'rva shirin chiqmaganini ichgisi kelmayotganini aytadi. O'g'li yerni chopib kelib onasidan ovqat so'raydi. Onasi boyagi sho'rvani olib keladi. O'g'li sho'rvani maqtab, mazza qilib ichadi. Shunda onasi: “Mehnat qilib topganing, qand-u asal totganing”- deydi.

#### **1- boshlovchi:**

O'zbekiston ona yurtim  
Bo'lgin sog'-omon.  
Boshin uzra tiniq bo'lsin  
Serquyosh osmon.

#### **2- boshlovchi:**

Hosilimiz xirmonlari  
Osmonga yetsin.  
Har bir kuning shodon bo'lib  
Bayramdek o'tsin

1-boshlovchi: Hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar, tengdosh do'stlar, shu bilan “Hosil bayrami”miz tugadi.

2-boshlovchi: Lekin bayram yurtimizning har bir go'shasida davom etadi.

Bayramingiz qutlug bo'lsin.

Topshiriq: Bayram kunlariga atab ssenariy tuzish.

## TARBIYADA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH


Reja:

1. Tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari va usullari.
2. "Qadam-baqadam" treningi.
3. "Tarmoqlar" metodi "Klaster"
4. "Rezume" texnologiyasi.
5. "Kontakt" – "Piyola" treningi (o'yin)

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustivorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi. Hozirgi kunda ta'lim- tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rnatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilish-lariga, hatto xulosalarini ham o'zları keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik funksiyasini bajaradi. O'qitish jarayonida o'quvchi talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil erkin fikrleshga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga va o'z tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Innovatsiya (ingiliz tilida INNOVATION) - yangilik yaratishdir. Yangiliklar asosida ta'lim jarayonining samaradorligini, tasirchanligini o'stirishga qaratilgan shakldan foydalanish ta'limda innovatsiya deyiladi.


Texnologiya-yunoncha (texni-mahorat, logos-fan) so'zlaridan oligan bo'lib, 1872-yil tanga kiritilgan. Pedagogik texnologiya-shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida davlatimiz ta'lif sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi. Har bir dars o'quvchi uchun yangilik bo'lishi ahamiyatlidir. Ana shundagina o'quvchining fikrlash qobiliyati oshadi. Ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi o'z oldiga o'quvchilarни o'ylashga, izlanishga, mustaqil fikrlashga undovchi darslardan foydalanishni maqsad qilib qo'yishi kerak. Shu maqsadni amalga oshirishda o'qituvchi quyidagicha tartibda guruhda dars turlaridan foydalanishi mumkin.



## Guruhlarni tashkil etish usullari

Guruhlarga bilan tanishish	Guruhlarga bo'lish	Talaba (yoki o'quvchi)lar bilan muloqotga kirish
- Anketa;	-xohishga ko'ra;	- o'quv jarayonini demokratik boshqarish;
-Intervyu;	-tasodifiy (jrebiy, fantik va b.);	-hamkorlikda ishlash;
-Muzyorar;	-belgi (rasmlar, ranglar, yil fasllari va b.);	-hamkorlikda reja tuzish;
-Predmetli ( koptok, shar va b.)	-sardor orqali (sardor tanlovi);	“Biz va o'qituvchi” usuli.
-Sanoq (30 gacha sanash).	-o'qituvchi tanlovi.	

## Guruh bo'lib ishlash modeli



### “Qadam – baqadam” treningi

Trening maqsadi: o'quvchilarni odob-axloq savodxonligini tekshirish. Treningdan kutiladigan natija: o'quvchilar bir-biriga qarama qarshi so'zlarni topish orqali, yaxshi, iliq so'zlar va unga qarama-qarshi bo'lgan sovuq, yomon so'zlar bilan tanishadilar, ularning hayotdagi o'rnini aniqlaydilar, bu so'zlarni o'z faoliyatlarida qo'llash darajasini belgilaydilar.

#### Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulot “qadam-baqadam” usuli asosida tashkil etiladi, ya'ni mashg'ulot davomida amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ish

bir qadam deb olinadi va har bir qadamda o'quvchilar biron-bir faoliyatda ishtirok etadilar yoki biron-bir ish bajaradilar. Misol tariqasida, "Bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlarni ayt" mavzusidagi tarbiyaviy mashg'ulotni o'tkazish tartibini keltiramiz:

**1-qadam**-o'quvchilar tarbiyachi tomonidan tarqatma materialda yozilgan so'zlarni diqqat bilan o'qib chiqishlari va har bir so'zning qarshisiga ahamiyati bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni yozishlari zarur.

Odoblilik-Odobsizlik

Halollik-

Mehnatsevarlik-

Qat'iyatlilik-

Vijdonlilik-

Vatanparvarlik-

Fidoyilik-

Intiluvchanlik-

**2-qadam**-o'quvchilardan har bir so'zga ta'rif berish talab qilinadi.

**3-qadam**-guruhlarga bo'linib, keltirilgan so'zlar ishtirokida hikoya yoki ertak tuzish tavsiya etiladi.

**4-qadam** - guruhlarga bir- birlarining hikoyalari(ertaklari) yuzasidan savol-javoblar o'tkaziladi.


**5-qadam**-guruh ishlari o'zaro baholanadi.

**6-qadam**-tarbiyachi mashg'ulotni yakunlaydi.

### Tarmoqlar "Klaster" metodi

**Fikrlarning tarmoqlanishi**-pedagogik strategiya bo'lib, u talaba (yoki o'quvchi) larning biron-bir mavzuni chuqr o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi.

**Fikrlarni tarmoqlash quyidagiicha tashkil etiladi:** 1. Hayolga kelgan har qanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi. 2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi. 3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlik ketma-ketligini ko'pay-tirishga harakat qilinishi lozim



### **“Rezyume” texnologiyasi.**

**Texnologiyaning xarakteristikasi.** Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir tola mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot berilgan. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

**Texnologiyaning maqsadi:** talaba (yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrleshga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir etishga, uni ma qullahshga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiyl tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallangan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

**Texnologiyaning qo'llanilishi:** ma'ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo'lса), seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka(yoki kichik guruhlar ajratilgan) tartibda o'tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo'llash mumkin.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar:** A-3 qog'ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratish;
- o'qituvchi talaba (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan, ya'ni asosiy muammo, undan ajratilgan o'quv muammolari va ularni yechish yo'llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlar tarqatiladi;
- har bir guruh a'zolari ularga tushgan varaqlaridagi muammolarni afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o'z fikrlarini flamaster yordamida yozma bayon etdilar.Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradiliar;
- kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o'qib eshitiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- O'qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so'rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so'ng taqdimot guruhi o'z xulosasi bilan tanishtiradi;
- O'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

O'quvchilarni tarbiyalashda jamoatchilikning o'rni							
Oila		Maktab		Mahalla		Do'stlar	
Afzal	Kamchilik	Afzal	Kamchlik	Afzal	Kamchilik	Afzal	Kamchilik
Jismoniy sog'lig'inisq lash	oila a'zolaring zararli odatlarni e'rganadi	ta'limgardarbya oladi	o'rtoqlardan salbiy fazilatlarini o'rganadi	jamoatchilik nazoratida bo'ladi	turli oilda tarbiyalangan bolalardan salbiy odatlami o'rganadi	do'stlari ning yaxshixulqlaridan ibrat oladi	do'stlari ning yomon odatlarni o'rganadi
<b>Xulosa:</b>							

### "Kontakt" – "Piyola" treningi (o'yin)

**Trening maqsadi:**

- sho'x o'yin orqali o'quvchilarni jamoaga tez kirishib ketishlariga imkoniyat va sharoit yaratish;
- o'quvchilar o'rtasidagi keskinlik, begonasirashlikni yo'qotish;

- o' quvchilardagi ijobiy kayfiyatni qo'llab quvvatlash;
- o' quvchilardagi noan'anaviy ijodiylikka ko'maklashish.

**Treningdan kutilgan natija:** o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, ularning ijodiy imkoniyatlari va sifatlarini ochish, o'quvchilar o'rtasida ruhiy to'siqlarni pasaytirishga sharoit yaratish.

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:** O'quvchilar doira shaklida joylashadilar. Tarbi-yachi davrada o'tirgan o'quvchilardan biriga piyola bera turib, quyidagi topshiriqni beradi: u qo'lidagi piyolani davradagi o'quvchilarga navbatma-navbat berib chiqadi, lekin u o'quvchilarga piyolani har gal har xil usulda, ko'rinishda berishi, bir xillik bo'lmasligiga harakat qilishi lozim. Piyola berayotgan o'quvchi yangiroq bir usul topolmasa yoki harakati qaytarilsa, o'quvchilar jamoasi unga qiziqarli, kulguli, yoshiga mos jarima topshirig'i beradi va uning o'rniga boshqa o'quvchini tanlaydi. Berilgan barcha jarimalarning topshiriqlari o'yin tugagach, ijro etiladi. "Piyola" o'yini davradagi hamma o'quvchilar navbati bilan o'yinda ishtirok etganlaridan so'ng yoki yangi original fikrlar tugamaguncha davom etadi yoki qarab to'xtatiladi. Mashg'ulot esa, o'yin davomida "jarima" olgan o'quvchilarning o'z topshiriqlarini bajarishlari bilan tugallanadi. "Jarima" olganlarning chiqishlaridan so'ng, tarbiyachi o'quvchilar bilan o'tkazilgan mashg'ulotga yakun yasaydi.

## BARKAMOL SHAXS SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

Reja:

1. Oilaning jamiyatda tutgan o'rni.
2. Oila – tarbiya maskani.
3. Oilaning muhim vazifalari.

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir. Oila tabiatning eng go'zal

mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos "tabiiy-biologik" (jinsiy munosabatlar), iqtisodiy (mulkiy imunosabatlar, uy-ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (nikohni davlat yo'li bilan qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-onalarning o'rta-sidagi mehr-oqibat tuyg'usi va boshqalar) munosabatlariga asoslangan ijtimoiy birlikdir.

Oila maqsadi – ikki jinsning o'zaro kelishuvli asosida farzandlarni dunyoga keltirish hamda tabiat va jamiyatning davomiyligini ta'minlash.

Oilaning vazifasi – er-xotining birgalikda xo'jalik yuritish asosida oilani ham ma'naviy, ham iqtisodiy jihatdan ta'minlash ha'mda jamiyatga sog'lom, aqli, har tomonlama barkamol farzand tarbiyalash. Oila mazmun va mohiyatga ko'ra har bir xalq, har bir millat uchun o'ziga xos xarakterli xususiyatlarga egadir. Sharqda oila tushunchasi oila qurish va uning mustahkamligini, farovonligi va barqarorligini ta'minlash insonning o'z millati, avlod-ajdodlari, jamiyati oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, oila o'zbek xalqi uchun eng muqaddas dargohdir. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: "Oilada o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezzulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'lari va yaqinlarining, qo'shnilarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavhardir".

Oilaviy tarbiya deganda ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzları asosida bola shaxsida dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi.

Sharq xalqlari, jumladan o'zbek oilasida bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraganlar. Oila turmushning eng zatur qismidir. Inson oilada dunyoga keladi. Oila insoniyat kelajagini davom ettiradi. O'zbek oilalarida tarbiyalangan bolalarning hayotdagi har qanday xattiharakatining oqibati to'g'ri baholangan. Yoshga monand ta'sir ko'rsatish yo'l va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda rag'batlantirish turlaridan foydalaniłgan, lozim bo'lsa jazolangan. Payg'ambarimizning hadisi

shariflarida “Farzandingizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilanglar” deb bejiz aytilmagan. Yosh avlodni tarbiyalashda keksa avlodning xizmati, ayniqsa benihoyadir. Oila jamiyatning eng kichik o’chog’idir. Bu muqaddas dargohda kelajak kishisi kamolga yetadi. Keksalar ko’pincha “Qush uyasida ko’rganini qiladi.” deyishadi. Shuning uchun ham kelajagimizning qanday bo’lishi bugun qanday hayot kechirayotganimizga, bolalarimizga qanday tarbiya berayotganimizga, ular qalbini qanday tuyg’ular, qanday orzular bilan to’ldirayotganimizga bog’liq. Hayotning achchiq-chuchugini ko’rgan, sinovlariga bardosh bergan keksa avlodchalik bolalar tarbiyasiga katta mas’uliyat bilan qaraydigan kishi bo’lmasa kerak. Ular o’zлari bilganni sidqidildan farzandlarga o’rgatadilar, ayni paytda donishmandlik bilan yoshlarni yomon xatolardan asrashga harakat qiladilar. Ular insoniyat abadiy zanjirda o’tinishda erishilgan boy ma’naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazuvchilardir.

O’zbekistonda tarbiya borasida to’plangan va izohlangan tarbiya metodlari kamol topayotgan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida ma’rifiy ahamiyatga ega. Mustaqillik munosabati bilan o’tinishda yashab ijod etgan olim-u, fuzalo va buyuk mutafakkirlarimiz va ularning asarlari xalqimizning moddiy va ma’naviy boyliklari hisoblanib, bu boyliklar bilan haqli ravishda g’ururlanamiz. Ular xalqimiz tomo-nidan ming yillar davomida to’plangan, tajribadan o’tkazilgan tarbiya metodlarini barkamol inson kamoloti uchun, inson va uning tarbiysi, insoniylik g’oyalari uchun bo’lgan intilishlarini to’pladilar, targ’ib qildilar.

O’zbek xalqining ota-bobolarimizdan bizga meros bo’lib qolgan kattalarga hurmat, yoshlarga mehr-shavqat, mehmondo’slik, chanqagan odamga suv, keksalarga joy berish, qo’l yuvimoqchi bo’lgan kishining qo’liga suv quyish, sochiq tutish, g’am-g’ussaga tushgan xonadonga borib ko’rish va ko’ngil ko’tarish singari urf-odatlar bor. Sharqona milliy odob ming yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borgani tarixdan ma’lum. Ko’p sohalarida qalam tebratgan ensiklopedist olim Abu Ali ibn Sino o’zidan oldingi o’tgan olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy dalillarni va tajribalarni tartibga soldi. U ayniqsa, Arastu va Abu Nasr Forobiyning ilg’or fikrlarini yanada rivojlantirib, inson aqli olamning, koinotning sir-u asrorlarini bilishga, o’rganishga qobil ekanligini isbotlashga urindi. O’z zakovati, bilmis, buyuk ilmiy asarlari bilan jahondagi barcha xalqlarning hurmatiga musharraf bo’lgan Ibn Sino buyuk

muallim ham edi. Uning "Donishnoma" asarida ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, insonning ruhiyati, axloq va odob kabi masalalar to'g'risida ta'lim-tarbiyaga oid chuqur fikrlar ifodalangan. Ibn Sino bola tarbiyasi bilan avvalo oila, ota-onal shug'ullanmog'i lozim, deydi.

Alisher Navoiyning tarbiyaga oid qarashlari deyarli barcha asarlarida o'z ifodasini topgan. "Hayrat ul abtor" kitobida tarbiyaning asosiy uslublarini sanab, ko'rsatib, bola tarbiyasiga va uning shaxs sifatida shakllanishiha katta ahamiyat berib, bolani baxt "chirog'i'deb ta'riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Agar oila bu tarbiya uslubini to'g'ri tatbiq eta olsa, qo'llay olsa oiladagi bolalar hayotlarida o'z baxtlariga tez erishadilar, degan g'oyani ifodalaydi. A.Navoiyning ta'kidlashicha: Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilish, buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Oilada bosh tarbiyachi otadir – deb hisoblaydi u. Uning fikricha, ota-bolalar tarbiyasida qattiqqo'llik va hatto kerak bo'lsa, jazo berishga qadar ta'sir ko'r-satuvchidir.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyaning zamoni bobida shunday deydi:"Endi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak,vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilur? degan savol keladur. Bu savolga, "birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidur" deb ta'kidlaydi. Bola tarbiyasida onaning vazifalariga alohida e'tibor beriladi. Mumkin qadar sipo, bosiq va chidamli bo'lishi lozimligini maslahat beriladi. Buning uchun oila a'zolarining har biriga ma'lum vazifalar yuklatilgan bo'lishi kerak. Chunonchi, erkak kishi oilda boshliq rolini bajaradigan bo'lgani uchun, u oilaning zarur talablarini bajarishi lozim, nimaiki va'da qilgan bo'lsa, o'z va'dasi ustidan chiqishi shart.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasiga oid o'z fikr va mulohazalarini bildirar ekan, bola tarbiyasini unga ism qo'yishdan boshlashni lozim ekanligini ta'kidlaydi, hamda bolalarga yaxshi, munosib ilm tanlashni ota-onaning dastlabki oliyanob vazifalaridan hisoblaydi.

Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida "Ota-onani hurmatlash haqida"gi bobida shunday deydi: aql yuzasidan bilgilki, ota-onaning izzat va hurmatini bo'yniga olish lozimdir, chunki farzandinining asli ota-onadir. Nima uchun ota-onani hurmat qilaman deb ko'nglinga keltirma. Bilgilki, ular sening uchun o'limga ham tayyor turadilar.Agar har farzand aqlli va dono bo'lsa, ota-onaning

mehri-muhabbatini ado qilishdan bosh tortmaydi. Ota-onaning ishi seni parvarish qilish va senga yaxshilik o'rgatishdir.

Har turli ilm va hunarni farzandingga o'rgatgaysen, toki otalik shartin va shafqatin bajo keltirgan bo'lasan, chunki dunyodagi turli falokatlaridan qutulg'usidir. Kishi o'z boshiga qanday ish tushishini bilmaydi, bunday vaqtda ilm va hunar kuniga yaraydi. Farzandingga nimani o'rgata olsang, o'rgatgilki, uning foydasi senga ham kelib turadi. Agar farzanding balog'atga yetgan bo'lsa uylantirib qo'y, qizing balog'atga yetgan bo'lsa erga bergil".

Bolaning tarbiyasi juda nozik jarayonlardan biri sanalib, tarbiyani bola shaxsiga singdirishda eng, avvalo, oila a'zolarining o'rni beqiyosdir. Ota-onha tarbiya berishda yetakchi shaxs hisoblanadi, otaning oiladagi o'rni, o'zini tutiishi, yurish-turishi, so'zlash madaniyati hamma-hammasi bolaning tarbiyasiga o'z salbiy va ijobiytasir yo'lini ko'rsatadi. Bolalarga samimiy va mehr-muruvvatli bo'lish vaqt kelganda xatosini ko'rsatib o'tish, uni yomon jihatlarini ko'ra bilish va unga kerakli, ya'ni psixologiyasiga ijobiyt ta'sir ko'rsatadigan holatlarni misol tariqasida aytib o'tish kerak. Onaning oiladagi o'rni muhim jarayon sanalib, ona va bola munosabati shaxsnинг shakllanishida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxslar aro munosabatlar tizimiga kiradi. Chunki bola dunyoga kelar ekan, u ilk bora ona qornida rivojlanadi va asta-sekinlik bilan o'sa boshlaydi.

Aburahmon Jomiy onani azizlab o'z mehri bilan hattoki jonini bermoqqa tayyor turuvchi ulug' zotlar ekanliklarini ta'kidlaydi.

"Men nechuk onamni sevmayin, u meni necha muddat jismida ko'tardi, so'ngra uzoq vaqt quchog'ida opichladi, keyin esa o'lguniga qadar qalbining shafqat go'shasida tashidi. Unga hurmatsizlik qilishdan ham yomonroq ish bo'lishi mumkinmi?!"

Yoki Abulqosim Firdavsiy onalarning farzand kamolidagi o'rnini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmasligini quyidagicha ta'riflaydi:

Ona nasihatin quyolsin quloq,

Dunyoda yomonlik istama mutloq.

Bag'rida o'stirmish jonidan aziz,

Jonidek aziz tut kecha-yu kunduz.

Onalar Yaratuvchi marhamatidan eng ko'p nasiba olgan zotlardir. Lekin onalar o'z-o'zidan bo'lmaydi. Tug'ma xastalik bilan tug'ilgan bolasiga bir umr marhamat ko'rsatib o'tadigan zot ham ona.

"Jannat onalar oyog'i ostidadir" hadisi sharifi onalar haqidagi eng olyi shahodatdir. "Go'ro'g'li" dostonida Qirq nasihatda insonni sevish, ardoqlash, qadrlash, baxt-saodati uchun kurashish zarurligi kabilar qiriq chilton nasihat-duo asosiy mag'zini tashkil etadi va doim o'z ota-onasiga mehr-muruvvat ko'rsatishga chaqiradi.

Ota bilan yashar ushbu bashorat, Farzand uchun ota oltin imorat, Yomon bo'lsa hamki ota ulug'dir, Ketgan bo'lsa qil qabrini ziyorat.

Ona ko'rsatadi jahon yuzini Oltinga bit har bir aytgan so'zini. Birisi oy bo'lsa, biridir quyosh, Tavob ayla bosib ketgan izini.

Oila inson hayotiga to'kislik bag'ishlaydi, oila baxt keltiradi. Har bir oila eng, avvalo, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan qutlug' ishdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila" haqidadir. Unga ko'ra shunday deyiladi:

**63-modda.** Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziлиgi va teng huquqliligiga asoslanadi.

**64-modda.** Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

**65-modda.** Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

**66-modda.** Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Oilaning shakllanishiga iqtisodiy munosabatlar, ishlab chiqarish usulining rivojlanishi va o'zgarishi bilan birga jamiyatning madaniy taraqqiyoti ham, ijtimoiy qarashlar ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va o'zgarishi esa oilaviy munosabatlarning ham rivojlanishiga olib keladi.

Oila tabiiy-biologik va ijtimoiy-tarixiy munosabatlar majmuidan tashkil topgan jamoadir. Nikoh oilaning negizi hisoblanadi. U yigit va qizning o'zaro muhabbatiga asoslangan uzoq muddatli ittifoqidan iborat bo'ladi. Shu sababli, nikoh ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtirib turadi.

O'zbek milliy an'analariga binoan, oilada otaning o'rni va vazifalari quvidagicha belgilanadi:

- oilani manaviy, iqtisodiy qo'llab –quvvatlash;
- ayoli va farzandlarining tashvishlariga sherik bo'lish;
- oilaga soya solayotgan xavf-xatarlarga qalqon bo'la bilish;
- oila a'zolariga g'amxo'r bo'lish;
- oilaning yashash joyi, oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak, uyro'zg'or anjomlari bilan ta'minlash, oila byudjetini to'g'ri yurita bilish;
- imorat qurish, remont qilish, dehqonchilik kabi xo'jalik ishlarini uddalash;
- oila a'zolarini orasida mehr-oqibat va birlikni vujudga kelтирish hamda mustahkamlash;
- oila a'zolarini zararli ta'sirlardan asrash va himoya qilish;
- oila a'zolarining odati, axloqi, o'zgalarga munosabati, jamoat joylarida o'zlarini tuta olishlari va yurish- turishlariga jamoat oldida javobgar ekanliklari;
- bolalarni milliy urf-odatlar va milliy madaniy merosni qadrlash, asrash hamda davom ettirish ruhida tarbiyalash;
- farzandlarni ijtimoiy hayotdan munosib o'rinni, nom va nom topishga tayyorlash, o'qitish, kasb-hunarga yo'llash, mehnatga o'rgatish;
- bolalarni mard, dovyurak, farosatlari, o'ziga, qarindoshurug'lariiga, el-yurtga sadoqatli qilib o'stirish;
- har qanday qiyinchilik sharoitida ham o'zini-o'zi idora qila olish, farzandlariga har tomonlama o'mak ko'rsatish, ularga va onasiga sodiq, mehribon, g'amxo'r bo'lish;
- farzandlarining o'qishi, Vatan xizmatida bo'lishi, uylanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga olishi, amalda bajarishi kabilardan iborat.

Bulardan ko'rinish turibdiki, ro'zg'orda otaning o'rni benihoya kattadir. Oilaviy hayot uning salobati, sharofati va mehri bilan shirindir.

Sharg milliy an'analariga binoan asrlar davomida oilada onanining burchi. o'rni va vazifalari quvidagicha belgilanadi:

- oilada farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish
- oilaning yashash joyi, uy-ro'zg'or anjomlarini ozoda va tartibli saqlash, ulardan ehtiyyotlik bilan foydalanish, oila byudjetini to'g'ri yurita bilish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini tejab-tergab ishlatish, lazzatli taomlar tayyorlash;

– uy jihozlash vositalarini shinam joylashtirish, kiyim-kechaklarni did bilan saqlash, remont qilish, yuvish, dazmollash, eskiranini butlash, ko'rpa-to'shak qoplash;

– bolalarni ozoda va sog'lom o'sishini, odobli va hayoli bo'lishini ta'minlaydigan sharoit yaratishda g'ayrat-shijoatl bo'lish;

– qizlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish, ularga milliy urfatlarning ijobili xususiyatlarini: ovqat pishirish, uy jihozlash, mehmon kutish, mehmon kuzatish, keksalarga xizmat qilish, ularning iffatli, iboli, hayoli bo'lishlariga erishish;

– har qanday qiyinchilik sharoitida ham o'zini-o'zi idora qila olish, farzandlariga har tomonlama o'rnak ko'rsatish, ularga va otasiga sodiq, mehribon, g'amxo'r bo'lish, ular oldida chtiyyotlik bilan hayo saqlash, jiddiy va sirli bo'lish;

– farzandlariga kundalik hayot mobaynida ota-onaga, qaynona va qaynotaga xizmat qilishning eng yaxshi namunasini ko'rsatib borish;

– farzandlarining o'qishi, Vatan xizmatida bo'lishi, uylanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha harakatlarni sidqidildan amalda bajarishi;

– farzandlarini bir-biriga oqibatli va mehribon qilib o'stirish;

– tullik paytida yoki crning oiladan uzoqdaligida otalik burchini ham o'z zimmasiga olish va bajarish.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, otalik va onalik burchlarini qat'iy chegara bilan ajratib bo'lmaydi. Kundalik hayot mobaynida ularni bajarishda er xotinga, xotin erga ko'maklashib yuborishi mumkin.

Tarbiyaning murakkabligi haqida Amir Temur: "Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqurroq mushohada undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim" degan edi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining asosiy tamoyillari quyidagilar bilan qat'iy belgilab berilgan:

- oila jamiyat va davlat muhofazasida;
- barcha fuqarolar – jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, c'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng;

- ayol bilan erkak oilada teng huquqqa ega;
- faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish;

- ixtiyoriy va erkin nikoh;
- davlat nazorati asosida nikohdan erkin ajralish;
- davlat otalik, onalik va bolalikni muhofaza etadi va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qiladi;
- bolalarni milliy istiqlol mafkurasi asosida tarbiyalash va boshqalardir.

Topshiriq: O'zbek milliy an'analariga binoan, oilada otaning va onaning o'rni va vazifalari nimalardan iboratligini sharhlang.

## OILADA BOLANI TO'G'RI TARBIYALASH SHART-SHAROITLARI

### Reja

1. Oilada bolani jismonan sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalash.
2. Oilada bolani kun tartibiga rioya qilishga o'rgatish.
3. Oilada bolani xalq milliy ana'nalari asosida tarbiyalash.

Oilaning asosiy vazifasi bola shaxsini hayotga, jamiyatdagi faol turmush tarziga tayyorlashdan iborat. Sog'lom oila muhitini yaratish bola tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Oiladagi turmush tarzi ta'sirida bolada ijobjiy yoki salbiy odatlar tarkib topadi.

Oilada bola hayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaqtidan to'g'ri va unumli foydalanishga o'rgatish – kun tartibiga rioya qilishga o'rgatish muvaffaqiyatlari oila tarbiyasining asosidir.

Bolaning oiladagi vaqtini o'qish, mehnat qilish, o'ynash, dars tayyorlash uchun to'g'ri taqsimlash oilaning ijtimoiy qurilishiga bog'liq. Oilada bolalar uchun alohida xona yoki hech bo'limasa, burchak ajratib berib, ularning kundalik tartib asosida o'z vaqtida darslarni tayyorlashlariga sharoit yaratish zarur. Bolalar xonasi toza, yorug', quruq, sof havo aylanadigan imkoniyatli, gigiyena talablariga javob beradigan bo'lishi lozim.

Ota-onal bolaning o'qishi, ishlashi va dam olishini qat'iy tartibga solishga alohida e'tibor berishi kerak. Ishlash va dam olishning mutanosiblashtirilishi bolaning sog'lom o'sishiga, aqliy rivojlanishiga va barcha faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Eng yaxshi dam olish – uqlashdir. Tiniqib uqlash organizmning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi. Uyqudan turgandan so'ng ertalabki badantarbiya qilishga odatlantirish zarur. Ertalabki badantarbiya muskullarning to'g'ri o'sishiga, qaddi-qomatni to'g'ri tutishga, organizmda modda almashinuvini yaxshilashga

yordam beradi, tetiklashtiradi. Tetiklik odamda ishlash istagini uyg'otadi. Ertalabki badantarbiya bolaning ish qobiliyatini oshirish bilan birga, uni tartibli, intizomli qilib tarbiyalaydi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi bolaning sog'lom o'sishi va ishlashi uchun katta ahamiyatga ega. Maktab yoshidagi bolalarga bir kunda to'rt marta ovqatlanish tavsiya etiladi. Bolani qat'iy belgilangan soatlarda ovqatlanishga, ovqatlanishdan oldin qo'l yuvishgga, ovqatdan so'ng og'zini chayqashga odatlantirish lozim. Bu bilan bolaga ovqatlanish madaniyati o'rgatiladi.

Bola yaxshi o'qishi uchun eng yaxshi vaqt aqliy mehnatga ajratilishi lozim. Bola maktabga I smenada o'qisa soat 15 dan boshlab, II smenada o'qisa soat 9 dan boshlab uy vazifalarini bajarishi kerak.

Kun tartibida bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri uyuştirish katta ahamiyatga ega. Bo'sh vaqtida bolalar sinfdan tashqari o'qish, musiqa tinglash, televizor ko'rish, radioeshittirishlarini tinglash, turli to'garak-larga qatnashish, harakatlari o'yinlar o'ynash, sayr-sayohatlarga borish kabilari bilan shug'ullanishlarini tashkil qilishda ota-onalar va o'qituv-chilarning hamkorligi g'oyat muhim.

Bolalarda yaxshi fazilatlarni vujudga keltirishda shaxsiy namuna va sog'lom ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega. Ota-onalar, oiladagi o'zaro munosabatlar samimiyligi, halol, rostgoylikka asoslanilgan bo'lsa, bunday oilada farzandlar mehrli, madaniyatli, odobli, xushmuomala bo'lib shakllanadilar.

H.H.Niyoziyning quyidagi ibratli sherini tahlil qiling:

### OTAMIZ

Fikr etib insof qilsak jumlamiz,  
Otamizdir eng muqaddas qiblamiz.  
Toki tongdin kechgacha mehnat etib,  
Tarbiya qilgan bizni, zahmat chekib.  
Ya'ni boqqan oshu-non bizga topub,  
Ustimizni yoz-u qish to'nla yopub.  
O'zi och qolsa, bizzi qoldirmadi,  
O'ynadik mehnatga hech soldirmadi.  
Biz mana maktabda yurgaymiz o'qub,  
Pul topar biz-chun ato mehnat kutub.  
Otadin kim boqsa bizga mehribon?  
Otamiz qubon erur bizlarga jon.

Otamiz bo'lsun desak bizdan rizo,  
O'qusak ham rozi, ham qilgay duo.

## ONAMIZ

Otamizdan ham muqaddas onamiz,  
Biz uchun bo'luchi chin qurbanimiz...  
Parcha go'sht erdik tug'ilgan vaqtimiz,  
Onamizning bag'ri bo'ldi taxtimiz.  
Kechalar sovuq beshiknilarni quchib,  
Tutdi ko'krak, shirin uyqudin kechib.  
Ikki-uch yilbag'ri uzra ko'tarib.  
Katta qildi o'zi mehnatda horub.  
Jonu dilda asradi bizni suyub,  
Dedi bizni, boshqa orzuni qo'yib.  
Og'risa bir joyimiz, yig'lab yurib,  
Har eshikni kezdi, doru axtarub.  
Yana yo'q bizga onadek mchribon,  
Sujnaga qalqon, bosh uzra soyabon  
Bizga ham lozim ani shod aylasak,  
Bizga qilgan xizmatin yod aylasak

Bolalarda chiroyli xulq-atvor ko'nikmasini, malakalarini tarbiyalashning o'ziga xos ko'pgina usul va vositalari borki, ota-onal kundalik hayotda ularni yaxshi bilishi, bevosita har qaysisidan o'z o'mida, me'yorida, maqsadga muvofiq foydalanishi g'oyat zarur. Bular jumlasiga: ibrat – namuna usuli, yaxshi xulq-atvorga o'rgatish, yaxshilikka odatlantirish, o'rni kelganda nasihat qilish, qat'iy tanbch berish, bola bilan vaqtinchalik gaplashmaslik, ularga nisbatan munosabatni o'zgartirish, ishontirish, jamoatchilikning ta'siri, rag'batlantirish va qoralash kabi vositalar shunday uslublar hisoblanadi. Har bir ota-onal bola tarbiyasining ijobiyligi yoki salbiy tomonga o'zgarishiga e'tibor berib, bu kabi nazariy hamda amaliy qonun-qoidalarni o'zlashtirib, unga amal qilsa, ayni muddao bo'ladi. Negaki, oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilmini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Maqsad aniqligi – tarbiyaning asosidir, to'g'riroq'i, u tarbiya ishlarni maqsadga muvofiq to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. Demak, oliy maqsad – yosh avlodni milliy qadriyatlarimiz, yaxshi urf-odatlarimiz va oilaviy an'analar ruhida tarbiyalash, jamiyat uchun oljanob fazilatli,

bilimdon, madaniyatli, bir so'z bilan aytganda, komil insonni yetishtirishdir. Xo'sh, komil insonni shakllantirishda oila tarbiyasida biz nimalarga e'tibor berishimiz zarur?

1. Oilada holalarни to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlik. 2. Bolani aql (talabchañlik) bilan sevganda, uning qiziqishlariga diqqat-e'tibor berganda, mazkur yoshidagi talab va ehtiyojlarini bilganda, bu harakat ota-onaga ruhan va jisman barkamol insonni tarbiyalab yetishtirish imkonini beradi. 3. Ota-ona hamma bolalariga bir xilda munosabatda bo'lishi tarbiyaning muhim shartidir. Bola tarbiysi g'oyat nozik, bu narsa vaqtini qo'ldan boy bermay, doimo, mutnazam shug'ullanishni talab etadi. Bolaga munosabatda, birinchi navbatda, uning yoshini hisobga olish kerak. Bolaning o'sish bosqichini uning yoshiga nishbatan quyidagicha belgilash mumkin: uch yoshgacha, uchdan yetti yoshgacha, yettidan o'n yoshgacha, o'ndan o'n to'rtgacha, o'n to'rtdan o'n oltigacha, keyin o'n sakkiz yoshgacha. 4. Tarbiya ishi maktab bilan oila hamda jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, mas'uliyatlari va sharafli vazifadir. Bu vazifaning to'g'ri bajarilishi ota-onalarни ham, maktabni ham, jamoatchilikni ham xushnud etadi, bundan keladigan tarbiya samarasi har tomonlama manfaatli bo'ladi, shuni nazarda tutib ota-ona farzandining o'qituvchisini ustoz bilib, u bilan tarbiyada bamaslahat ish tutishi, o'z navbatida, o'qituvchi ham o'quvchisining ota-onasini g'oyat samimiy va hurmat bilan qalbiga yaqin tutishi kerak, shunda aloqa mustahkam bo'ladi. Inson bolasi uchun oila asosiy go'sha, hayotga tayyor bo'lib chiqadigan qutlug' va mo'tabar dargoh. Uning xosiyatu fazilatlarini, odam jismonan va ruhan quvvatu tarbiya olishini oila bilan bog'lasak, turmush kechirishdagi hissasi g'oyat ulug' ekanini his etamiz.

#### **Oilada bola tarbiyasiga oid bo'lgan hikmatli fikrlar.**


- Tartib-intizomning eng zo'r bo'lgan maskanni-oila sanaladi.
- Bola uchun birinchi saboq, mayli itoatkorlik bo'la qolsin, shunda sen nimani zarur deb topsang, o'sha ikkinchi saboq bo'ladi.
- Inson tabiatiga bolalikda singdirilgan tarbiyaning o'mi katta bo'ladi.
- Bolalarni o'stirish va tarbiyalash ulkan jiddiy va haddan tashqari ma'suliyatlari ish hisobladi.
- Bola tarbiysi uchun davlatni boshqarishdan ko'ra ham teranroq mushohada undan ham chuqurroq donishmandlik kerak.

- Odatda bolalikdan singdirilgan odatlar yosh daraxt tanasiga o'yib yozilgan harflarga o'xshaydiki, ular daraxt bilan birga o'sadi, voyaga yetadi, daraxtning tarkibiy qismiga aylanib boradi.
- Dastlabki paytda bola uchun ona tarbiyasi hamma narsadan muhimdir, binobarin axloq bolaga tuyg'u sifatida singdirib yuborilmog'i zarur.
- Ota donoligi bola uchun chinakam saboqdir.
- Har bir insonni tarbiyalasa bo'ladi, ammo tarbiyalangan insonni tarbiyalash qiyin ishdir.
- Tarbiyani yoshlikdan singdirmoq, kutilayotgan falokatning oldini olishdan ko'ra afzalroq.

### Milliy xususiyatlari

- Xalqimiz hayotida qadim – qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- Jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el – yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- Ota- ona, mahalla – ko'y, umuman jamoatga yuksak hurmat – e'tibori;
- Millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- Kattaga hurmat va kichikka izzat;
- Sabr – bardosh va mehnatsevarlik;
- Halollik, mehr – oqibat;
- Mehr – muhabbat, go'zallik va nafosat ramzi – ayol zotiga chtirom.

### Umumbashariy tamovillar



## MAKTAB, OILA VA JAMOATCHILIKNING HAMKORLIGI

Reja:

1. Maktab oila va jamoatchilik hamkorligi konsepsiysi haqida.
2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda maktab, oila va jamoatchilikning tutgan o'mni.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiysi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'nnaviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida gilanling vazifalari:

-oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-onasi har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxer bo'lishni taminlash;

-oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchclarini anglab etishlarini va ularga rioxaya qilishlarini ta'minlash;

-farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'nnaviyatlari kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash; -bozor imunosabatlariiga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarini farzandlar ongiga singdirish;

-bolalarning ma'nnaviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy muhitni yaratish;

-bolalarni mustaqil fikrleshinga o'rgatish, istiqlol g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhidha tarbiyalash;

-bolalarning bo'sh vaqlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lif berish;

-farzandlarida mayjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlanirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchclarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;

-ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;

-bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;

-oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas'ullikni ta'minlash;

- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko'nikmalarini singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkililikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;

-oila mакtab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xattiharakatlari uchun javobgardirlar;

-sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasbkor o'rgatishdan iborat. Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandlariga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'liga topshirib savodini chiqarish, ilmlmi, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir. "O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, mакtab hamkorligi" Konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida mакtabning vazifalari:

-mакtabda bolaga biron-bir kasb-korni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;

-o'quvch yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini tashkil qilish;

-balalarga ta'lif berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalariga mos ravishda ta'minlash;

-o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'lilda tabaqalashtirilgan yonda-shuvni joriy etish;

-ota-onalar bilan suhbatlashish;

-aloqa daftarlari yuritish;

-O'quvchining uyiga tashrif, yashash sharoiti bilan tanishish;

-ota-onalar yig'ilishlari o'tkazish;

- Ota-onalar qo'mitasi saylash.

Maktabning oila bilan hamkorlikdagi ish shakllari maktabdagagi ichki tartib-intizomni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir ota-onasi o'z farzandining xatti-harakati uchun maktabda, mahalla va jamoatchilik oldida, otaliq tashkiloti oldida javobgar ekanligini his qilishi, mahalladagi barcha ota-onalarни pedagogik bilimlарини оshirishda bu ishlarning ahamiyati katta.

**Ota-onalar qo'mitasi quyidagi vazifalarni bajaradilar:**

1. Maktab ota-onalar qo'mitasi raisi maktab pedagogik kengashining a'zosi hisoblanadi. U maktabdagagi muammolarni hal qilishda faol ishtirot etib, kerakli maslahatlarni beradi.
2. Ota-onalar qo'mitasi maktah uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni hozirlashda mahalla, jamoatchilik va otaliq tashkilotlardan boshlab to Respublika rahbarlarigacha iltimos bilan murojaat qilishga haqlidir.
3. Ota-onalar qo'mitasi maktabdagagi ichki tartib-intizomni mustahkamlash maqsadida uni maktab ma'muriyati bilan hamkorlikda muhokama qilishi mumkin.
4. Har bir ota-onani o'z farzandining xatti-harakati uchun maktabda, mahalla va jamoatchilik oldida, otaliq tashkiloti oldida muhokama qilishga, mahalladagi barcha ota-onalarни pedagogik bilimlarga jaib qilishga haqlidir.
5. Ota-onalar qo'mitasi o'z uchastkasidagi ota-onani, o'quvchini o'z faoliyatiga va o'z tarbiyasiga olish huquqiga egadir.
6. Ota-onalar orasidagi yoki ota-onalar bilan o'qituvchi orasidagi barcha nizolarni bartaraf etish va hal qilish huquqiga egadir.
7. Ota-onalar qo'mitasi mahalladagi o'quvchilarning va tarbiyachilarning salomatligi uchun qayg'urishi shart.

Maktab va ta'lif tizimini rivojlantirish hamda zamonamizga yetuk yosh avlodni yetkazib berishda bunday ibratli tadbirlarni har bir maktabdagagi ota-onalar qo'mitasi bilishi va shu tarzda ish olib borishi kerak. Maktab ota-onalar qo'mitasi mahalla oldida, ota-onalar va jamoatchilik oldida turli seminar va ma'ruzalar tashkil etishi kerak.

"O'quvchilarning tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasini amaga oshirish jarayonida mahallaning vazifalari:

- mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lif-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan

masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarni topishda faoliik ko'rsatilishi;

- mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'klab-quvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lish;

-ma'n nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralarini ko'rish;

-mahalla hududida o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash;

-ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;

-yoshlar diniy mazhablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishlariga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

-mahalla yig'inlarida milliy davlatchilik va milliy mafkura g'oyalarini, respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda crishilgan yutuqlar targ'ibotini amalga oshirish borasida turli tadbirlar tashkil qilish;

60000

Rasulova Yoqutxon Naxrullayevna,  
Maqsudova Durdonaxon Sultonmurodovna

# TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

*O'quv qo'llanma*

*"Sano-standart" Toshkent, 2012*

Nashr uchun mas'ul *M.Umirova*  
Tehnik muharrir *M.Qosimova*  
Badiiy muharrir *I.Zoxidova*

Nashriyot litsenziyası № А1 177, 03.01.2011.  
Terishga 10.09.2012 yilda berildi. Bosishga 05.10.2012 yilda ruxsat etildi.  
Bihimi: 60x84 <sup>1/16</sup>. Offset bosma. Times garniturasi. Shartli b.t. 6,0.  
Nashr b.t 5,27. Adadi: 50. Buyurtma № 1302.  
Bahosi shartnomaga asosida.

"Sano-standart" nashriyot , 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. E-mail: [sano-standart@mail.ru](mailto:sano-standart@mail.ru)

"Sano-standart" MChJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent shahri, Shiroq ko'chasi, 100-uy.  
Telefonlar: (371) 228-07-94, faks: (371) 228-07-95.